

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
FILOLOGIYA FAKULTETI**

**O`ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI  
IV KURS KUNDUZGI BO`LIM BITIRUVCHISI  
RAHMATOVA NARGIZANING**

**«Kesimlik shakllari va sodda gap qurilishi» mavzusida**

**5 220100 - Filologiya (o`zbek filologiyasi) yo`nalishida bakalavr  
ilmiy darajasini olish uchun yozgan**

# **MALAKAVIY BITIRUV ISHI**

**(2011-2012-o`quv yili)**

**Ilmiy rahbar:**

**filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
NAZAROVA S.A.**

**Buxoro-2012**

## **REJA:**

**Kirish. Ishning umumiy tavsifi.**

**I bob. Kesimlik kategoriyasi va uning valentligi.**

**1.1. Kesimlik mustaqil grammatik kategoriya sifatida.**

**1.2. Grammatik shakl valentligi va kesimlik shakllari tizimi.**

**II bob. O`zbek tilida sodda gaplarning substansial talqini.**

**2.1.[WPm]=SG – sodda gapning eng kichik qurilish qolipi sifatida.**

**2.2.[WPm]=SG qolipining variantlari.**

**Umumiy xulosa.**

## **Kirish.Ishning umumiy tavsifi.**

**Mavzuning tadqiq darajasi.** Dunyodagi fanlarning eng qadimiylaridan bo`lmish tilshunoslik necha o`n asrlardiki, til deyiladigan tilsimning tabiatini, tub mohiyatini tushunish va tushuntirish yo`lida tinimsiz izlanadi. Ayni izlanishlarning hosilasi o`laroq bu fanda xilma-xil yo`nalishlar, ilmiy qarashlar nuqtayi nazarlarning yuzaga kelganligidan bugun bexabar bo`lgan tilshunos yo`q [32,44]. Shu bois keyingi yillarda lisoniy qurilshning umumiy qonuniyatlarini o`zbek tili materiallari asosida yangicha tadqiq etish va tahlil qilishga qaratilgan izlanishlar silsilasi yuzaga keldi. Bu izlanishlarning salmog`i kundan-kunga oshib bormoqda.

Ma'lumki, o`zbek tili qurilishiga doir tadqiqot, darslik va o`quv qo`llanmalarida tilning sistemaviy xarakteri haqida ko`plab fikr-mulohazalar bildirilgan, sintaktik sathning asosiy birliklaridan biri sifatida sodda gap turli ilmiy qarashlar va yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Fanimizda sodda gaplarning tadqiqi bilan bog`liq ma'lumotlar gap sintaksisini to`ldiruvchi, biroq sintaktik makrotizim tarkibida unga bevosita aloqador mikrotizim hosil qilganligidan dalolat beradi. Zero, o`zbek tilshunosligida sodda gaplarning formal-grammatik talqini sodda gap sintaksisi mikrotizimini shakllantirgan tamal toshlariga aylandi. O`zbek tilshunosligida A.G`ulomov, G`.Abdurahmonov, M.Asqarova, F.Abdullayev, A.Abdullayev, A.Safoyev, A.Sulaymonov, I.Rasulov, B.Egamberdiyev, I.Xayrullayev, B.O`rinboyev, F.Hazratqulov kabi tilshunos olimlar yaratgan darslik, o`quv qo`llanma-yu ilmiy asarlarda sodda gaplarning empirik bosqichdagi tahlili natijasida to`plangan ilk ilmiy dalillar o`z ifodasini topgan. Jumladan, sodda gap qurilishi va gap bo`laklarining ifodalanishi (va shu kabi boshqa qator xususiyatlar) to`g`risidagi dalillar yig`ilib, mazkur sintaktik hodisani bilishning empirik (hissiy, sensual), ya'ni fahm bosqichida sodda gaplarning formal-grammatik asoslari shakllangan sintaktik ta'limotni vujudga keltirdi [5;6;8;14;27;29]. Sodda gap bo`laklarini, belgi-xususiyatlarini aniqlash, izchillashtirish va tasvirlash hali tom ma'noda ilmiy tahlil emas, lekin ilmiy o`rganishning zaruriy tarkibiy qismidir [17,5]. Bu bosqichdagi vazifa amalga oshirilgach, mazkur til hodisasining ichki qurilishi va boshqa hodisalarga

aloqadorligini o`rganishni, shu munosabatlar asosida har bir dalilning mohiyatini aniqlashni o`z oldiga maqsad qilib qo`ygan ikkinchi bosqich kurtaklari shakllandi.

O`tgan asrning 70-yillarida yuzaga kelib, XXI asrning dastlabki yillaridayoq o`zbek tilshunosligi kelajagining nazariy poydevoriga aylangan formal-funksional (substansial) tahlil yo`nalishi sodda gaplarning empirik talqini natijalariga tayangan holda yangi ilmiy g`oyalarni ilgari surdi. Bugungi kunda o`zbek substansial tilshunosligi til tizimi va uning birliklarini o`rganish jarayonida bilishning ratsional (idrok) bosqichiga ko`tarilib, bir butun nazariy ta`limotni shakllantirdi. Bu ta`limot o`zbek tilida sodda gaplarning formal-funksional tahlili natijasi o`laroq, sodda gap sintaksisi tom ma`noda mikrotizm ekanligini, lisoniy-sintaktik sathning tadqiq manbayi lisoniy-sintaktik qurilish qolipi (LSQ) hisoblanishini isbotladi. Binobarin, sodda gap LSQi va uning variantlarini, sodda gap LSQining nutqiy voqelanish hamda uslubiy qo`llanish imkoniyatlarini tadqiq etish muammosining nazariy asoslari ishlab chiqilgan.

**Mavzuning dolzarbligi.** O`zbek formal-funksional sintaksisida sodda gap lisoniy-sintaktik qurilish qolipi aniqlanib, uning asosiy ko`rinishlari belgilangan bo`lsa ham, sodda gaplarning qurilish qoliplari paradigmalari ajratilmagan. Shu bilan birga, kesimlik shakllarining sodda gaplarning lisoniy-sintaktik qurilishiga ta`siri va sodda gap qurilish qoliplarini belgilashi masalasi alohida tadqiq etilmagan. Sodda gap sintaksisini formal-funksional nuqtayi nazardan talqin etgan ilmiy, o`quv-usuliy adabiyotlarda sodda gaplarning lisoniy qurilishi, ularning eng kichik qurilish qolipi to`g`risida ma`lumot berilgan bo`lsa ham, sodda gaplarning lisoniy qurilishini tizim qonuniyati asosida tadqiq etish zaruratini tug`diradi. Bu esa sodda gap umumiy lisoniy-sintaktik qurilish qolipi va variantlarini ushbu qolip umumiy va xususiy shakllarini belgilashda kesimlik kategoriyasi shakllarining vazifasini, ayni choqda, sodda gap lisoniy-sintaktik qurilishiga kesimlik shakllarining ta`sirini tahlil etish orqali o`rganish imkoniyatini beradi. Shunday ekan, mazkur masalani tadqiq etish zarurati va mavjud imkoniyat malakaviy-bitiruv ishining shakllanishi uchun yetarlicha asos bo`la oladi.

**Ishning maqsad va vazifalari.** Mazkur malakaviy-bitiruv ishi oldidagi maqsad kesimlik shakllarining sodda gap lisoniy-sintaktik qurilishiga ta'siri va sodda gap qurilish qoliplarini belgilashi masalasini o'rganishdan iborat. Shunga ko'ra, belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- kesimlik kategoriyasining morfologik xususiyatlarini tavsiflash;
- kesimlik shakllari tizimi va uni tashkil etuvchi grammatik shakllarning sintaktik mohiyatini aniqlashtirish;
- kesimlik shakllariga xos valentlik xususiyatlarini izohlash va uning sodda gap qurilishini belgilashdagi vazifasini ko'rsatish;
- sodda gaplarning substansial talqini va natijalarini yoritish;
- sodda gaplarning LSQi va uning variantlarini izohlash;
- sodda gap LSQi va uning variantlarini ajratishda kesimlik shakllarining o'rni va ahamiyatini belgilash.

**Ishning tadqiq manbayi.** Jamiyatimiz a'zolari nutqida keng iste'molda bo'lgan sodda gaplar ishning tadqiq manbayi sifatida tanlangan. O'zbek tilshunosligida kesimlik kategoriyasi va sodda gaplarning formal-funksional tadqiqiga bag'ishlangan darslik, o'quv qo'llanma-yu ilmiy asarlar ishning nazariy asosini tashkil etadi.

**Ishning metodologik asosi va tadqiq usullari.** Malakaviy-bitiruv ishida sodda gaplarning qurilish qoliplarini aniqlash va kesimlik shakllarining valentlik imkoniyatlarini tavsiflashda lisoniy tizimning paradigmatic hamda sintagmatik munosabatlaridan foydalanildi. Substansial tilshunoslikning til birligini lison-nutq ziddiyati asosida izchil farqlaydigan, umumiylik-xususiylik, mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqeilik, sabab-oqibat ixtiloflaridan iborat tadqiq usullariga tayanib, sodda gaplarning lisoniy-sintaktik qurilishi tahlil etildi. Sodda gap LSQi va uning variantlarini belgilashda struktural tahlil usuli qo'llandi.

**Ishning nazariy va amaliy ahamiyati.** Mazkur malakaviy-bitiruv ishida kun tartibiga qo'yilgan masalaning nazariy ahamiyati o'zbek tili sintaksisining substansial talqinida sodda gap umumiy lisoniy-sintaktik qurilish qolipi va

variantlarini, kesimlik kategoriyasi shakllarining ushbu qolip umumiy va xususiy shakllarini belgilashdagi vazifasi hamda sodda gap lisoniy-sintaktik qurilishiga kesimlik shakllarining ta'sirini tahlil etish asosida o`rganish muammosini yechishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, sodda gap lisoniy-sintaktik qurilish qolipi – [WPm]=SG va uning variantlari xususiyatlarini tavsiflash, asosiysi, morfologik va sintaktik sathlararo aloqadorlikni lisoniy tizim yaxlitligida o`rganish masalasini yechish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir.

Malakaviy-bitiruv ishining amaliy ahamiyati shundaki, oily ta'lim tizimida "Hozirgi o`zbek adabiy tili" fanining "Morfologiya" bo`limida kesimlik kategoriyasi va kesimlik shakllarini tizim sifatida tahlili qilish hamda "Sintaksis" bo`limida kesimlik shakllarining sodda gaplarda voqelanishi va sodda gap lisoniy-sintaktik qurilishini belgilashi masalalarini o`rganish jarayonida ishning natijalaridan qo`shimcha manba sifatida foydalanish mumkin.

#### **Ishning jamoatchilik e'tiboridan o'tishi.**

Ushbu mavzu Buxoro davlat universiteti o`zbek filologiyasi kafedrasida muhokama qilinib tasdiqlangan.

**Ishning tuzilishi va hajmi.** Malakaviy-bitiruv ishi kirish, ishning umumiy tavsifi, ikki bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati kabi qismlardan iborat bo`lib, 53 sahifada o`z aksini topgan.

## **I BOB. KESIMLIK KATEGORIYASI VA UNING VALENTLIGI.**

### **1.1. Kesimlik mustaqil grammatik kategoriya sifatida.**

Tilshunosligimizning so`nggi yutuqlari shuni ko`rsatib turibdiki, ko`p holatlarda “oldingdan oqqan suvning qadri yo`q” deganlaridek, tadqiqotchilar eng muhim, o`ta oddiy hodisalarni diqqatdan chetda qoldirib, murakkab, ko`pchilikka tushunarli bo`lmagan hodisalar tahliliga ko`p e`tibor qaratib kelganlar. Natijada, ilmiy ahamiyati ulkan, hammaga tushunarli sodda hodisa chetda qolib, murakkabliklar diqqat markazini egallaydi. Biroq fan taraqqiyoti shuni yaqqol tasdiqlaydiki, “o`ta muhim ilmiy muammo” bo`lgan chigalliklar yechimi oddiy (hammaga ma`lum) hodisalarning mohiyatini uqish va anglash orqali topiladi.

Kesimlik, ya`ni gapning markazi bo`lmish kesimni shakllantiruvchi grammatik vositalar yaqin vaqtlargacha tilshunoslar diqqatidan chetda qolgan edi. Tilshunoslarimiz tomonidan mohiyatan mantiqiy hodisa bo`lib, subyekt-predikat aloqalarini aks ettiruvchi predikatsiyaning til tizimida ifodalanishiga doir, hukmning lisoniy ifodasi, tilda tasdiq-inkor, mayl-zamon, shaxs-sonni ifodalash usul va vositalariga bag`ishlab yozilgan jild-jild tadqiqotlar, son-sanoqsiz ilmiy maqolalar, ma`ruzalar e`lon qilindi, ommalashtirildi. Lekin “kesimlikning o`zi nima, kesimlikni shakllantiruvchi alohida grammatik kategoriya bormi?” degan savolni o`rtaga qo`yishga tilshunoslar shoshilmadilar. Ular uchun bu masala “o`z-o`zidan tushunarli va ravshan” edi. Negaki, kesimlik mantiqiy predikativ munosabatlarga, predikatsiyaga, subyekt-predikat munosabatlariga tenglashtirilar edi. Turkiyshunoslikda esa kesimlik qo`shimchalari deganda, asosan, kesim tarkibidagi shaxs-son qo`shimchalari tushunilar edi.

Jumladan, turkiyshunoslikda hozirgi kunda ham, me`yoriy va ta`lim o`choqlarida o`qitilib kelayotgan o`quv-ta`limiy va ilmiy grammatikalarning asosiy tavsif usuli bo`lgan formal tavsif usuli bu vazifada asosan shaxs-son qo`shimchalarinigina tahlil qiladi. Kesimlik shakllari (affikslari) deganda shaxs-son qo`shimchalarinigina tushuniladi, xolos.

Turkiy tilshunoslik taraqqiyotiga ulkan hissa qo`shgan N.A.Baskakov, N.A.Kononovlar ham N.K.Dmitriyev izidan borib, kesimlik shakllarini shaxs-son

qo`shimchalari bilan va [-**dir/-tir**] qo`shimchasining turli ko`rinishlari bilan tenglashtiradilar. Natijada, 80-yillargacha kesimlik, kesimlik shakllari va hatto kesimlik kategoriyasi deganda asosan [-**dir**] qo`shimchasi va shaxs-son ko`rsatgichlari anglashildi. Turkiy nazariy tilshunoslikka katta hissa qo`shgan E.V.Sevortyan birinchilardan bo`lib kesimlik kategoriyasi tushunchasini fanimizga olib kirdi.

Lekin olim “kesimlik” deganda ega-kesim munosabatlarini va kesim tarkibida shaxs-son ishorasini tushundi. E.V. Sevortyan kesim deganda kesim va ega orasidagi munosabatni tushunadi va bu munosabat tom ma`noda mantiqiy subyekt-predikat munosabatlari bilan tenglashtiriladi. Kesimlik predikatsiya bilan, belgi va uning tashuvchisi orasidagi munosabat bilan aynanlashtiriladi.

E.V.Sevortyan kesimlikni, kesimlik kategoriyasini alohida kategoriya sifatida ajratgan bo`lsa-da, kesimlik kategoriyasini shaxs-son qo`shimchalari bilan va [-**dir**] qo`shimchasi bilan tenglashtirishdan nariga o`tolmadi.

Demak, kesimlik kategoriyasini alohida grammatik kategoriya sifatida ajratishga va tahlil etishga intilgan zukko turkiyshunos ham sinxronik-formal tahlil usulining an`anasidan kesimlikni, kesimlik shakllarini shaxs-son qo`shimchalari bilan tenglashtirishdan qutula olmagan.

O`zbek tilshunosligida kesimlik kategoriyasini murakkab va mustaqil grammatik kategoriya sifatida ajratish va shunga asosan uni tavsiflash fanimizda formal-funksional(substansial) tahlil usulining [10] shakllanishi hamda shu usulda grammatik talqin-u tavsilarning yaratilishi bilan bog`liq. Formal-funksional yo`nalishda kesimlik kategoriyasi murakkab – tasdi/inkor (N), modallik/mayl (M), zamon (T), shaxs-son (P) ma`no va ko`rsatgichlarining birligidan hosil bo`ladigan alohida mustaqil va kesimni shakllantiruvchi, nutqqa olib kiruvchi grammatik kategoriya sifatida baholanadi va ajratiladi. Shu bois kesim bu yo`nalishda gap yoki uning tarkibiy qismlari bo`lgan bo`laklari orqali yoki mohiyatan mantiqiy tushuncha bo`lgan predmet, predikatsiya, predikativ munosabat tushunchalari orqali emas, sof grammatik vazifa jihatidan sof sintaktik, shakliy tomondan

morfologik mohiyatga ega bo'lgan kategoriya – kesimlik kategoriyasi orqali ta'riflanadi [17; 5; 10].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, shakl va kategoriya tushunchalari pog'anali, butun-bo'laklik, katta-kichiklik munosabatlari bilan bog'langanligi sababli biror kategoriyaga mansub bo'lmaydigan morfologik forma bo'lishi mumkin emas. Moddiy ko'rsatkichi bitta bo'lgan kategoriyalarda muayyan morfologik formani yasovchi asosning o'zi nol ko'rsatkichli bo'lib, ikkinchi morfologik shaklni tashkil qiladi. Chunonchi,

*kitob* -birlik son

*kitoblar*- ko'plik son

*qizil* -oddiy daraja

*qizilroq* -qiyosiy daraja.

Odatda nokategorial deb ataluvchi -niki, -dagi, -dek, -gacha morfemalari mohiyatan so'z yasovchilardir. Sh.Shahobiddinova morfologik kategoriyalarni o'rganar ekan, o'zbek tilidagi grammatik kategoriyalarni bir necha jihatdan tasnif qiladi:

1. Kategoriyadagi shakllarning ma'naviy tarkibiga ko'ra.
2. Morfologik kategoriya (MK)larning so'z turkumlari yoki gap bo'laklariga xosligi jihatidan.
3. MK sintaktik qobiliyatlarining yo'nalishlariga ko'ra.

Endi shular ustida qisqacha to'xtalib o'taylik. Birinchi tasnifga ko'ra kategoriyalar sodda va murakkab kategoriyalarga ajratiladi. Son, qiyoslash, kelishik, nisbat, subyektiv munosabat kategoriyalari sodda kategoriyalar jumlasidandir. Chunki ularda ma'no sodda bo'lib, faqat bir kategoriyaga mansub bo'lgan ma'noni ajratamiz. Chunonchi, son kategoriyasining ma'nosi miqdoriy va sifatliy belgilarning ma'lum yig'indisidan iborat bo'lsa, kelishik kategoriyasi tobelikni ifodalaydi. Qiyoslash kategoriyasi belgining qiyosan ekanligini ko'rsatsa, nisbat kategoriyasi fe'l anglatgan bajaruvchining tavsifini ifodalaydi.

Murakkab kategoriyalarning shakllarida ma'no murakkab bo'lib, ularda bir necha kategoriyalarga mansub bo'lgan ma'nolarni ajratish mumkin.

Murakkab kategoriyalar sirasiga egalik, o`zgalovchi, kesimlik kategoriyalarini kiritish mumkin. Masalan, egalik kategoriyasida uch xil ma`no mujassamlangan bo`ladi:

a) lisoniy va nolisoniy munosabatni ifodalash (egalik kategoriyasi uchun kategorial ma`no);

b) shaxs ma`nosi (nokategorial ma`no);

d) son ma`nosi (nokategorial ma`no).

Kesimlik kategoriyasi ham murakkab bo`lib, unda tasdiq-inkor, mayl-zamon, shaxs -son ma`nolari birlashgan bo`lib, ular bitta qo`shimchada yoki bir necha qo`shimchada ro`yobga chiqadi. Masalan, “Olmani ol” gapida “ol” so`z shakli tasdiq, buyruq mayli, hozirgi zamon, ikkinchi shaxs, birlik son ma`nolarini voqelashtirib kelmoqda va bu ma`nolar [Ø] bilan ifodalanmoqda. “Kitobni olmadingiz” gapida inkor ma`nosi [-ma] qo`shimchasi bilan, mayl-zamon ma`nosi [-di] bilan, ko`plik ma`nosi [-iz] bilan ifodalanmoqda. O`zgalovchi kategoriya ham murakkab bo`lib, unda ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi shakllari ma`nolari bir butunlikni hosil qiladi.

Morfologik kategoriyalarning so`z turkumlari yoki gap bo`laklariga xosligi jihatidan tasnifiga ko`ra MKlar ikkiga bo`linadi: leksik-morfologik va funksional-morfologik. Leksik-morfologik kategoriyalar so`zlarning ayrim guruhlari-turkumlariga xos. Bular sirasiga son, subyektiv munosabat, qiyoslash, daraja, nisbat, o`zgalovchi kategoriyalar kiradi. Chunki son kategoriyasi, asosan, ot, olmoshlarga; qiyoslash, daraja kategoriyalari sifatlarga; nisbat, o`zgalovchi kategoriyalari fe'llarga xos leksik-morfologik kategoriyalar sifatida ajratiladi. Funksional-grammatik kategoriyalarga kelishik, egalik, kesimlik kategoriyasi kiradi. Chunki kesimlik kategoriyasi gap markazi kesimni shakllantirsa, kelishik uning boshqa bo`laklarini shakllantiradi. Egalik kategoriyasi esa so`z birikmasi qurilishini ta`minlash uchun xizmat qiladi.

MKlar sintaktik qobiliyatlarining yo`nalishlariga ko`ra tasnifida “birin – ketinlik”, ya`ni grammatik kategoriyalar sintaktik qobiliyatlarining “oldingisi bilan” va “keyingisi bilan” sifatida belgilanishi nazarda tutiladi. Masalan,

“kitobning” soʻzshaklidagi [-ning] oʻzidan keyin egalik shaklini olgan ot kelishi shartligini, “kitobi” soʻzidagi [-i] bu soʻz shaklidan oldin qandaydir qaratqich aniqlovchi boʻlishi zarurligini koʻrsatadi. Oʻzbek tilida egalik, nisbat, kesimlik, qiyoslash, son kategoriyalari soʻzshaklning ‘oldingisi bilan’ aloqalarini koʻrsatsa, kelishik kategoriyasi soʻzshaklning “keyingisi bilan” aloqasini koʻrsatadi. Shaxsiy baho shakllari bu jihatdan moʻtadildir.

Kesimlik kategoriyasi murakkab kategoriya hisoblanar ekan, uning tarkibidagi shakllar mazmuni ham murakkablik xususiyatiga egami? Bu savolga javob berish uchun kesimlik kategoriyasi mazmunini tahlil qilish talab etiladi. Shunday ekan, navbatdagi vazifa mazkur kategoriya mazmunini tahlil qilishdan iborat.

Kesimlik kategoriyasi mazmun jihatdan tasdiq/inkor (shartli ravishda T), mayl (soʻzlovchining etilayotgan fikrga munosabati – shartli ravishda M), zamon (shartli – Z) va shaxs-son (shartli ravishda – Sh) maʼnolaridan tarkib topadi [10]. Bu maʼnolar birgalikda voqelangandagina kesimlik kategoriyasining ichki mazmun tomonini tashkil etadi. TMZSh maʼnolarining har biri alohida-alohida voqelanishi mumkin. Masalan, modal soʻzlarda yoki uslubiy boʻyoqli soʻzlarda M kuchli boʻladi, kishilik olmoshlarida, egalik qoʻshimchalarida Sh maʼnosi yetakchilik qiladi, tasdiq/inkor soʻzlarda boʻlishli/boʻlishsizlik shakllarida T maʼnosi yorqin ifodalangan boʻladi, ravishlarda, juda koʻp makon va zamon otlarida, oʻrin-payt kelishigi shaklida, ravishdosh va sifatdoshlarda zamon(uning bilan bogʻliq tarzda makon) maʼnosi voqelanadi. Lekin bu toʻrttala maʼnoning birortasi alohida olingan tarzda kesimlik kategoriyasi (Kk – quyida qisqartma shaklida beriladi) mazmun tomonini tashkil eta olmaydi. Kksining ichki tomoni TMZSh yaxlitligidan iborat boʻladi. Istalgan sistema (butunlik) uni tashkil etuvchilari (tarkibiy qismlari, elementlari) yigʻindisidan kattaroq boʻlgan yangi butunlik ekanligi qonuniyati [17; 5;10] asosida kesimlik kategoriyasi ichki tomonining mohiyati uning tashkil etuvchilari – TMZSh yigʻindisidan kattaroq boʻlib, til tizimida oʻziga xos vazifaga gap markazini shakllantirish vazifasiga ixtisoslashtirilgandir. Bu mohiyat moddiy jihatdan xilma-xil usullarda voqelanadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'zbek tilshunosligida ham, turkiyshunoslikda ham kesimlik kategoriyasining tarkibiy qismlari bo'lgan tasdiq/inkor, mayl/modallik, zamon, shaxs/son shakllarining yasalish va ma'nolarining tavsifi juda ko'p ilmiy adabiyotlarda berilgan, lekin tasdiq-inkor, mayl-modallik, zamon va shaxs-sonning hech biri kesimlik kategoriyasiga tenglashtirilishi mumkin emas. Negaki, kesimlik kategoriyasi mustaqil grammatik kategoriya bo'lib, u NMTP(TMZSh)ning barqaror munosabatlari va o'zaro bog'lanishda voqelanishidan tashkil topadi, ya'ni:

$$[K_k = N_R M_R T_R P]$$

Ma'lumki, sistema bu elementlar (tarkibiy qismlar) va ularning orasidagi barqaror munosabatlardan tashkil topgan butunlikdir.

Tarkibiy qismlarning birortasi mustaqil holda, alohida sifatida, sinxronik formal tahlil usuli namoyandalari qarashlaridan farqli o'laroq, kesimlik kategoriyasiga tenglashtirilishi mumkin emas. Kesimlik kategoriyasi bu to'rt tarkibiy qismning birgalikda va uzviy aloqadorlikda voqelanishidir. Kesimlik kategoriyasi tarkibiy qismlarining har biri nisbiy semantik-funksional va lisoniy mustaqillikka ega bo'lib, kesimlik kategoriyasidan ajralgan holda ham voqelanishi mumkin. Chunonchi:

- a) bo'lishli/bo'lishsizlik ma'nosi sifatdoshlarda (olgan, olmagan), ravishdoshlarda (yozib, yozmay), tasdiq-inkor ma'nolari modal so'zlarda (ha, yo`q, bor-yo`q);
- b) modallik ma'nosi sifatdoshlarda, o'zbek tili dialektlarida (borajak odam - borishi kerak bo'lgan odam) kabilar;
- c) zamon ma'nosi sifatdoshlarda (borgan, boradigan, borayotgan), ravishdoshlarda (borib, bora-bora, borgach);
- d) shaxs-son ma'nosi egalik shakllarida alohida voqelanishi mumkin, ammo ularning birortasi kesimlik kategoriyasini tashkil etmaydi.

Sistema, element va munosabat tushunchalari sistemologiya va qisman matematik modellashtirish nuqtayi nazaridan fanimizda atroflicha tadqiq etilganligi [16; 19; 10] va mazkur ishlarda zaruriy ilmiy ta'rif keltirilganligi bois bu to'rt

element (N,M,T,P)dan bitta butunlik–kesimlik kategoriyasining hosil bo`lish qonuniyatlari tahliliga mufassal tavsif bera olmaymiz. Yuqorida sanab o`tilgan ishlar “ushbu to`rt element munosabatini bunday tushunish o`quvchi diqqatini chalg`itgan bo`lar edi” degan da`volarning mutlaqo o`rinsizligini anglatadi. Ot-kesim masalasini yoritgan paytda (darslik, qo`llanma, tadqiqotlarda) mayl, zamon masalalarini chetlab o`tish shunday da`voning yashirin voqelanishidir. Bunday da`vo formal tahlilning atomizmi (ya`ni tadqiq manbayini aloqadorliklardan, paradigmasidan ajratilgan holda, alohida mustaqillik sifatida o`rganish) va empirizmi (ya`ni hukm chiqarishda bevosita kuzatishda berilgan holatiga tayanish) [9; 51] oqibatidir. Haqiqatan ham, atov gaplarda, ya`ni **“Otam–o`qituvchi”**, **“Mentalabaman”** kabi voqelanishlarda kesim tarkibida mayl, zamon hatto tasdiq va shaxs-son shakllari yo`qdek. Bunday gaplarda bu ma`nolar maxsus ko`rsatgichlar bilan ifodalanmagan. Lekin tilshunoslik nazariyasidan ma`lumki, moddiy ifodalangan formal ko`rsatgichning yo`qligi grammatik shakl va ma`noning yo`qligi yoki voqelanmaganligi sifatida baholanishi mumkin emas. Grammatik ma`no belgisizlik (qo`shimchasizlik), ya`ni [O] – nol morfema, so`z tartibi gapdagi mavqeyi (pozitsiyasi) va hatto nutq sharoiti bilan ifodalanishi mumkin.

Agar biz, masalan, atov gapni zamon paradigmasiga solsak, uning zamon ma`nosi shakliga ega ekanligi ma`lum bo`ladi. Masalan: **“Gul chog`i. Bahor. Hamma yoq ko`m-ko`k”**. Bu matnda, haqiqatan ham, “Gul chog`i”da kesimlikning hech qanday ko`rsatgichi yo`q, ammo shunday gaplarni Uyg`un va Izzat Sultonlarning “Navoiy” dramasiidagi quyidagi parcha bilan qiyoslasak, **“Hamon yodimdadir: gul chog`i erdi”** misrasi asosida

1. **Gul chog`i.**

2. **Gul chog`i erdi.**

paradigmasi hosil bo`ladi. Bu paradigmadagi ikkinchi a`zo (Gul chog`i erdi) atov gapda kesim o`tgan zamondagi ekanligiga hech qanday shubha yo`q. Undan shart mayli shaklini ham hosil qilish mumkin: **Gul chog`i ersa**. Atov gapning o`tgan zamon va shart mayli shakllari uning III shaxsda kelganligidan dalolat berib turibdi. Shart mayli shakli esa **“Gul chog`i”**, **“Gul chog`i erdi”** gaplaridagi kesim

aniqlik mayli shakli ekanligidan dalolat beradi. Demak, “*Gul chog`i*” gapini “*Gul chog`i erdi*” gapi bilan qiyoslash asosida uning o`tgan zamon shakli va ma`nosiga, “*Gul chog`i ersa*” gapi bilan qiyoslash asosida uning aniqlik maylida, “*Gul chog`i emas*” gapi bilan qiyoslash asosida esa tasdiq ma`no va shakliga ega ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Demak, “*Gul chog`i. Bahor. Hamma yoq ko`m-ko`k*” matnidagi “*Gul chog`i*” gapida ham, “*Bahor*” gapida ham kesimlik kategoriyasi barcha tarkibiy qismlari tasdiq, aniqlik mayli, hozirgi-kelasi zamon, III shaxs ma`no va shakllari bilan ifodalangan. Aniqrog`i, mazkur gaplar [O] – nol morfema bilan shakllangan kesimga egadir.

Ayni paytda shuni alohida ta`kidlash lozimki, me`yoriy [WpM] qurilishli gaplarda kesim tarkibining tasdiq/inkor, mayl, zamon, shaxs/son ma`no va shakllariga ega ekanligi hech qanday izohni talab qilmaydi [5].

Xulosa qilib aytganda, kesimlik kategoriyasi tasdiq/inkor, modallik, zamon va shaxs/son kabi nisbatan mustaqil bo`lgan lisoniy kategoriyalardan hosil bo`lgan va tasdiq/inkor, modallik, zamon va shaxs/son ma`no va shakllaridan iborat bo`lib, gap kesimini shakllantiruvchi mustaqil grammatik (shaklan morfologik, vazifa jihatdan sintaktik mohiyatli) kategoriyadir. Tushum kelishigi vositasiz to`ldiruvchi, qaratqich kelishigi qaratqich aniqlovchining morfologik shakli bo`lganidek, gapning markazi – kesimning morfologik shakli kesimlik kategoriyasidir.

## **1.2. Grammatik shakl valentligi va kesimlik shakllari tizimi.**

Gap tarkibidagi so`zlarning muayyan qurshovda, muayyan ishtirokchilari bilan birika olish imkoniyatlari tasodifiy va butunlay erkin emas. Ular muayyan qonuniyatlarga bo`ysunadi. Fanning eng so`nggi yutuqlariga tayanib ayta olamizki, hozirda ma`lum til birligining boshqasi bilan birikuvining asosiy qonuniyatlari valentlik tushunchasida birlashadi. Ma`lum bir so`zning boshqa so`zlar bilan birika olish imkoniyati, ma`noviy sintagmani tuzuvi, o`z ma`nosini to`la ochish uchun muayyan so`z va so`z shakllarni talab etishi valentlik nazariyasining asosini tashkil etadi.

Valentlik atamasi, eng avvalo, kimyo faniga tegishli bo`lib, biror kimyoviy element atomining boshqa element atomlaridan muayyan sondagisini biriktirib



(Ertalab Karima akasiga xatni shahar tashqarisiga zudlik bilan chiqib ketayotganligini bildirish uchun shoshilganicha qalamda qisqagina yozdi.)

Demak, [yozmoq] soʻzi oʻz maʼnosini toʻla ochib berishi uchun yuqoridagi soʻroqlarga javob boʻla oladigan soʻzlar bilan kengaytirilishi (nutqda birikib kelishi) talab etiladi. Nutqiy valentlik yashirin imkoniyat, mohiyat, umumiylik, zaruriyat boʻlgan lisoniy valentlikning moddiylikka ega boʻlishi, yaʼni roʻyobga chiqishidir.

Soʻz valentligi substansial hodisa sifatida soʻzning doimiy ichki xususiyati boʻlib, bu xususiyat nutq faoliyatida soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishida paydo boʻlmaydi. U nutqqacha, yaʼni tilda til “birligi” sifatida soʻz maʼno tarkibida mavjud boʻladi, “yashaydi”, yuzaga chiqishga tayyor turgan imkoniyat tarzida saqlanadi.

Biriktiruvchi soʻz maʼlum bir maʼnoviy turkum (guruh) soʻzlar bilan birikishi uchun bu turkum soʻzlarning maʼlum bir sintaktik shaklda boʻlishini talab etadi. Soʻz lisoniy valentligidagi bu tomon sintaktik valentlik deyiladi. Maʼnoviy valentlik va sintaktik valentlik soʻz lisoniy valentligining ajralmas ikki tomonidir. Sintaktik valentlik bilan maʼnoviy valentlik baʼzi holatlarda oʻzaro nisbiy mutanosib bogʻliqlikda boʻladi, yaʼni biri oʻzgarsa, ikkinchisi ham oʻzgaradi.

Masalan:

**foil            manba    harakat**

1.*Salim    kitobga    yozdi.*

**sababchi    manba    harakat**

2.*Salim    kitob    yozdirdi.*

**sababchi    manba    harakat**


3.*Salim uchun kitob yozildi.*


Baʼzan valentlikning bir koʻrinishi oʻzgarsa-da, ikkinchisi oʻzgarmasligi ham mumkin. Affiksial morfemalarning birikuvchanlik qobiliyati grammatik shakl valentligi deb yuritiladi. Grammatik shakl valentligi mohiyatan maʼnoviy valentlikka oʻxshashdir, biroq umumiylik darajasiga koʻra semantik valentlikdan ancha yuqori boʻlib, kategorial umumlashmalar darajasidadir. Masalan, qaratqich

kelishigining morfemasi o`zidan keyin kelgan so`z tarkibidagi egalik qo`shimchasi bilan birika olish valentligiga ega, bu so`z birikmasi tarkibida muvofiqlashadi. Ular bir-birini tanlagan, birikish uchun bir-birini tanlash esa *valentlikdir*.

Tilga substansial yondashish nafaqat lug`aviy shakllarda, balki morfologik (grammatik) shakllarda ham valentlik qonuniyatining mavjudligi haqidagi fikrni ilgari surishga asos bera oladi. Tilshunoslikda grammatik valentlik tushunchasi grammatik shaklning ma`noviy va sintaktik tomonini dialektik birlikda ko`rish natijasida paydo bo`ldi [19; 40].

Leksemalar kabi grammatik shakllar ham valentlikka ega bo`lib, ular leksema valentligini o`zgartirishi, leksema valentligiga ta`sir qilishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, affiksial morfemalarning birikish qobiliyati grammatik shakl valentligidir. Quyida tarkibida grammatik shakl mavjud bo`lmagan hamda grammatik shaklli leksemaning birikuv imkoniyatlarini kuzataylik:





Ushbu leksemalar birikuviga jiddiy ahamiyat berilsa, [-lar] va [-dir] grammatik ko`rsatgichlarininr *kitob* hamda *kulmoq* leksemalarining birikish imkoniyatlariga ta`sir etganligini fahmlash mumkin. *Kitob* leksemasining valentligi ko`plik son shakli [-lar] hisobiga toraygan bo`lsa, *kulmoq* leksemasida birikuv imkoniyatlari [-dir] orttirma nisbat shakli hisobiga kengaygan. Bundan tashqari, *kitob* leksemasi [-im] egalik morfemasi bilan shakllantirilganda *mening* so`z shakli bilan birikishga imkoniyat tug`iladi: *mening kitobim*. Bunday xususiyatni nafaqat shaxs-son yoki egalik, balki boshqa turdagi qo`shimchalarda ham kuzatish mumkin. Chunonchi, *keldik* shakllangan fe`lidagi [-k] I shaxs, ko`plik son qo`shimchasi *biz* olmoshiga; *oqayotgan* so`z shaklidagi hozirgi zamonni ifodalashga xoslangan [-yotgan] shakli ism bilan birikishga ehtiyoj sezadi.

Demak, til hodisalariga substansial yondashish turkiy tillarning grammatik, xususan, morfologik shakllarda ham valentlikni ajratish imkoniyatini beradi. Bundan biz grammatik shakl so`zning potensial (lisoniy) valentligini o`zgartirishi–kengaytirishi yoki, aksincha, toraytirishi mumkinligi haqida xulosa chiqara olamiz. Shuning uchun grammatik shakl valentligi va so`zning potensial (lisoniy)

valentligi orasidagi farq grammatik shakl valentligi bilan belgilanadi, degan hukmni ilgari surish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, valentlik nutqda soʻzlar orasidagi sintaktik aloqani, soʻzlarning, grammatik shakllarning oʻzaro birikuvini taʼminlovchi potensiyadir. Sintaktik aloqadan valentlik kelib chiqmaydi, balki valentlikdan sintaktik aloqa kelib chiqadi. Soʻz valentligi va sintaktik aloqa dialektik bogʻliq, oʻzaro bir butun, ajralmas, ayni vaqtda, har biri nisbiy mustaqil boʻlgan hodisalardir.

Ravshanki, gap hukmni ifoda etuvchi lisoniy vositadir. Hukm esa gapning kesimisiz ifodalana olmaydi, yakunlanmaydi. Gapning hukmdan farqli oʻlaroq grammatik kategoriya sifatidagi talqini hamda gap va hukm orasidagi aloqadorlik masalasi oʻzbek sistem-struktur tilshunosligida H.Neʼmatov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, R.Sayfullayeva, M.Qurbonova, M.Abuzalovalarning tadqiqotlarida yetarlicha yoritilgan.

Anʼanaviy talqinga koʻra: “grammatik jihatdan kesim oʻz sostavidagi boʻlaklarga nisbatan hokim, egaga nisbatan esa tobedir. Ega birinchi bosh boʻlak, mutloq hokim boʻlak boʻlsa ham, gapni tashkil etishda, gaplikni koʻrsatishda kesim muhim rol oʻynaydi. Ega faqat temani ataydi, shu tema haqidagi bayon, fikr, mulohaza kesim orqali ifoda qilinadi” [22;12;9]. Oʻzida predikativlikni aks ettiradigan, gapni uyushtiruvchi va shakllantiruvchi markaziy boʻlak kesimdir. U kesimlik belgisini ifodalovchi (harakat, holat, xususiyat) ega haqidagi xabarni bildirgan boʻlakdir.

Juda koʻp holatlarda kesim feʼldir va bu feʼl egada ifodalangan subyektning holat yoki harakatini belgilab beradi. Shu bilan birga, kesim gap qurilishida uyushtiruvchilik vazifasini bajaradi. Qolgan boʻlaklar kesimning kengaytiruvchilari yoki oʻsha kengaytiruvchilarning kengaytiruvchilari hisoblanadi. Bu jihatdan ega ham kesimning subyekt valentligini toʻldiruvchi boʻlak – gap tizimini kengaytiruvchi hisoblanadi [23;67]. “Kesim gapning predikativ markazidir”, “kesim oʻzicha fikr ifodalash qobiliyati bilan ham ajralib turadi” degan qarashlar ham lingvistik adabiyotlarda oʻz aksini topgan. Biz bu boʻlimda kesimning tarkibiy qismi boʻlgan kesimlik kategoriyasi [Pm] haqida soʻz yuritmoqchimiz.

Gap til bosqichida (lisoniy sathda) kesimlik ko`rsatkichlari (shakllari) bilan shakllangan atov birligi demakdir. N.K.Dmitriyev bu haqda “Kesimlik kategoriyasi mohiyatan sof sintaktik vazifa bajaruvchi morfologik kategoriyadir”,- deydi. Kesimlik kategoriyasi tarkibiy qismlari bo`lgan bo`lishli/bo`lishsizlik, mayl-zamon, shaxs-son shakllarining ham sintaktik qobiliyati gap doirasida voqelashadi. Kesimlik shakli esa gapning “joni” – markazini tashkil etuvchi kategoriyadir.

Ma'lumki, kesimlik kategoriyasi to`rtta grammatik ma'no majmuyidan tashkil topadi:

1. Tasdiq-inkor.
2. Mayl- modallik.
3. Zamon.
4. Shaxs-son.

O`zbek tilida hukmdagi tasdiq-inkor, so`zlovchining bayon etilayotgan fikriga munosabati (mayl), harakat-holatning nutq momentiga munosabati (zamon) va uning ishtirokchilariga aloqasi (shaxs-son) kabi ma'nolarning majmuasi kesimlik kategoriyasi vositasida shakllantiriladi [17].

O`zbek tili substansial tilshunosligi nazariyotchilari – H.Ne'matov, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, M.Qurbonova, M.Abuzalova, R.Bobokalonov, Sh.Shahobiddinova kesimlik kategoriyasini ilmiy asoslab berganlar. Ammo bu kategoriya o`zbek tilshunosligida alohida tadqiq manbasi sifatida H.Ne'matov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, R.Sayfullayeva, M.Qurbonova, M.Abuzalovalarning tadqiqotlarida yetarlicha yoritilgan. Biz yuqoridagi olimlarning bu sohadagi fikrlarini yaxlitlab, kesimlik kategoriyasining alohida shakllar tizimi ekanligini isbotlashga harakat qilamiz.


Olima Sh.Shahobiddinova ham o`z tadqiqotida [16] morfologik kategoriyalar haqida fikr yuritir ekan, o`zbek tilida quyidagi morfologik kategoriyalarni ajratadi:

1. Son kategoriyasi: [O]:[-lar].
2. Egallik kategoriyasi: [O]:[-(i)m]:[-(i)ng]...
3. Kelishik kategoriyasi: [O]:[-ning]:[-ni]...

4. Qiyoslash kategoriyasi: [O]:[-roq].
5. Nisbat kategoriyasi: [O]:[-t/dir]:[-il]...
6. O`zgalovchi kategoriya: [O]:[-(i)sh]:[-(i)b]:[-gan].
7. Kesimlik kategoriyasi: [O] – aniqlik – buyruq – shart mayli...

Tadqiqotchi ushbu yetti kategoriyaning o`ziga xos xususiyatlari haqida shunday mulohazani bildirgan: “Funksional-morfologik kategoriyalar o`z navbatida sintaktik qobiliyatlarining yo`nalishiga ko`ra, yana ekvipolent ziddiyatga kirishadi: “oldingi bilan bog`lash” belgisiga ko`ra, kesimlik, egalik kategoriyalari bir tomonda, “keyingi bilan bog`lash” belgisiga ko`ra, kelishik kategoriyasi ikkinchi tomonda turadi [16]. Olima bu bilan kesimlikning hokimlik belgisi mavjudligini asoslab bergan. Kesim tarkibidagi ushbu morfologik kategoriyaning sintaktik vazifalari – qobiliyatlarining ochilishi, ya`ni kesimning morfologiyaga aloqasi masalasini chigallashtirganday tuyuladi. Shuning uchun ham kesimlik yoki fe`l kesim deb ataluvchi ushbu kategoriyani ajratish turkiyshunoslikda yangi hodisa ekanligini ta`kidlamoq lozim.

“Kesimlik kategoriyasi tasdiq-inkor, mayl, zamon, shaxs-son ma`nolarining sintezlashuvidan yuzaga kelgan bir umumiy ma`noning turlicha shakllarda ifodalanishi bilan xarakterlanadi. Mazkur kategoriya shakllarining ma`nolari murakkab bo`lib, grammatik shakllar mohiyatining semantik tomonini yuqorida sanab o`tilgan ma`nolar tashkil etsa, “kesimni shakllantirish va gap egasi bilan bog`lash” vazifasi sintaktik tomonini tashkil etadi. Shu sababdan gapda kesim hamma vaqt tarkiban murakkabdir. U lug`aviy asos – atov birligi – [W] va gapning grammatik shakli –[Pm] qismlaridan iborat. Masalan:



*Sevgilim, sevgilim, og`riydi dilim.* (M.Yusuf)

Bu matndagi *og`riydi* kesimining [W] qismi – “og`ri” –atov birligini, [-y+di] kesimlik ko`rsatgichini tashkil etadi. Undagi [-ydi] zamon ma`nosini – hozirgi-

kelasi zamoni, I shaxs birlik, bo`lishlilikni, modallik ko`rsatgichi neytral holatni, aniq maylni ko`rsatadi.

Kesimlik kategoriyasi alohida shakllar tizimi sifatida voqelanar ekan, uning qismlari hisoblanmish shaxs-sonning ifodalanishini atroflicha ko`rib o`tish lozim bo`ladi.

### **Kesimlik kategoriyasida shaxs-sonning ifodalanishi.**

Gapga xos grammatik shaxs kategoriyasi harakat yoki belgining o`z subyektiga nutq jarayonining boshqa ishtirokchilariga munosabatini ifodalaydi. Ish-harakatning bajarilishida fe'lga nisbatan olganimizda uch grammatik shaxs ko`zda tutiladi:

I shaxs – so`zlovchi.

II shaxs – tinglovchi.

III shaxs – o`zga.

Demak, so`zlovchi va tinglovchi ikki hamsuhbat. Ammo shuni e`tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, fe'ldagi morfologik shaxs kategoriyasi gapning grammatik shaxs kategoriyasi uchun asos bo`lib xizmat qilsa-da, aslida, u bilan teng emas. Bu kategoriya o`zida sintaktik shaxs kategoriyasini ham aks ettiradiki, bu morfologik shaxs kategoriyasi ko`lamiga nisbatan ancha keng. Chunki u fe'l ishtirok etmagan gaplarda ham ifodalanadi.

Shaxs-son birlikda va ko`plikda quyidagicha shaklda bo`ladi:

I shaxs. Birlik: [-di+m]; [-sa+m]; [-man]; [-(a)yin].

Ko`plik: [-k]; [-miz] [-(a)ylik].

II shaxs. Birlik: [-di+ngiz]; [-ngiz+lar]; [-siz]; [-(i)nglar].

Ko`plik [-di+ngiz]; [-ngiz+lar] [-(i)ng+lar].

III shaxs. Birlik: [-di+O]; [-sa+O]; [-sin].

Ko`plik; [-sh+(di)]; [-sh+ (-sa)]; [-sh+sinlar].

Bir qator tilshunoslar fikriga ko`ra, “sintaktik shaxs kategoriyasi olmoshlardagi shaxs kategoriyasi bilan o`xshashdir”. A.G`ulomov esa fe'ldagi shaxs kategoriyasi kishilik olmoshlaridagi holatga o`xshashligini qayd etib o`tadi. Kishilik olmoshlarida shaxs-sonning ifodalanishiga ko`ra ko`ra uch turni ajratadi:

1. Sof birlik (hech vaqt ko`plik uchun ishlatilmaydi: men, sen, u).
2. Sof ko`plik (birlik uchun qo`llanilmaydi: bizlar, sizlar).
3. O`rta (o`rniga qarab birlik uchun ham, ko`plik uchun ham xos: biz, siz, ular).

Bu holat fe'llarda ham kuzatiladi. Buni misollar orqali ko`rsatib bergan olim quyidagicha xulosaga keladi: "Tuslangan affikslarning otlardagi so`z o`zgartuvchi egalik affikslari bilan o`xshashligi bordir. Masalan, "bordim", "hovlim" lesksemalarida [-m] affikslarining o`xshashligi aniq hodisa: bularning ikkalasi ham birinchi shaxsning birligini ko`rsatadi (ikkisi ham birinchi shaxsni bildiruvchi "men" olmoshining affikslashishidan tug`ilgan deb faraz qilinadi). Demak, otlar va fe'llardagi shaxs-son bildiradigan affikslar tarixiy jihatdan bir-biri bilan aloqadordir"[23;66]. Bu aloqadorlik muayyan o`xshashliklarda ko`rinadi. Sintaktik shaxs kategoriyasida ham shaxs ma'nosi I, II, III shaxs, noaniq shaxs, umumlashgan shaxs, shaxssizlikka ajratiladi. Sintaktik shaxs kategoriyasini ifodalashda fe'lning shaxs, nisbat shakllari, olmoshlar xizmat qiladi. Chunonchi:

1. Men bir zum ularga angrayib qoldim.
2. Orqangizdan termulganlarim  
Bilmadingiz, bilmadingiz, yor. (Qo`shiqdan)
3. Uning ko`zlari armon bilan olislarga tikildi. (P.Qodirov)

Birinchi misolimizda *qarab qoldim* kesimida *qarab qol* – [W] – atov birligi bo`lib, [-di+m]- [Pm]- kesimlik kategoriyasi ko`rsatgichlari I shaxs, aniqlik mayli, o`tgan zamon, tasdiq ma'nosini reallashtirgan. Gapning egasi "men" olmoshi bilan ifodalangan.

Ikkinchi gapda *bilmadingiz* kesimi ikki qismga bo`linadi: *bil* - [W]; [-ma+di+ng+iz] – [Pm] kesimlik shaklidir. O`z navbatida, [-ma] bo`lishsizlik, inkor ma'nosini, [-di] – o`tgan zamonni, [-ng] - shaxs (II shaxs), [-iz] - son (ko`plik) ma'nosini voqelashtirgan.

Uchinchi misolimizning kesimi *tikildi* bo`lib, *tikil*–[W] – atov birligi, [-di]- kesimlik kategoriyasi [Pm]ni tashkil qiladi va yaqin o`tgan zamon, III shaxs, birlik, tasdiq, aniq mayl ma'nolarini yuzaga chiqargan. Ko`rinib turibdiki, [Pm]

tarkibidagi shaxs-son kesimlik kategoriyasining asosiy bo`g`inlaridan biri sanalib, u hamisha gapning egasini, agensini, adresatini aniqlashtirib beruvchi kategoriya bo`lib qoladi.

### **Kesimlik kategoriyasida zamon shakllari.**

Gap orqali ifodalangan voqeaning ma`lum zamonga munosabati va bu munosabatni ifodalovchi shakllar tizimi gapning zamon kategoriyasi sanaladi [29,100]. Grammatik zamon kategoriyasi ham xuddi grammatik shaxs-son kategoriyalari kabi morfologik asosga tayangan holda kelib chiqadi, lekin uning o`zi bilan chegaralanib qolmaydi.

Fe`lning zamon shakllari gapning zamon kategoriyasini ifodalashga asos bo`lib xizmat qiladi. Biroq bu narsa fe`lning zamon kategoriyasi bilan gapning zamon kategoriyasi aynan bir xil degan xulosani bermaydi. Gapning zamon kategoriyasi ba`zi hollarda fe`lning zamon shaklidan tashqari ham ifodalanishi mumkin. “O`zbek tilining nazariy grammatikasi” tadqiqotida bu fikr quyidagicha misollar orqali dalillangan:

#### **Xush kelibsiz. Men ishchiman.**

Tilshunoslarning izohlashicha, birinchi gapdagi kelibsiz fe`li turli zamon shakllarida (Masalan: xush keladi, xush kelmoqchi, xush keldi va h.k.) ishlatilishi mumkin emas, ikkinchi gapda esa umuman fe`l yo`q lekin zamon ma`nosi bor. Ko`rinadiki, gapning zamon ma`nosi uning ifodalovchilari orqali hamda gap tuzilishi orqali ifodalanishi mumkin [13,42].

Til birligisifatidagi fe`lda zamon grammatik ma`nosini ifodalovchi turli grammatik shakllar ma`lum bir paradigmani hosil qiladi va paradigma a`zolarining o`rnini bir-biri bilan almashtirilishi mumkin bo`ladi. Masalan, bordi (boradi, boryapti, bormoqchi va h.k.). shuningdek, atov gaplarda ham hozirgi zamon ma`nosi yuzaga kelishi mumkin: **Kuz... Xazonrezgi.**

Ko`rinadiki, zamon kategoriyasi ham gap qurilishi uchun mohiyatn xos bo`lib, lisoniy birlik bo`lgan gap mazmunining ma`lum yo`nalishini o`zagartira oladi.

### **Kesimlik shaklida modallik va tasdiq/inkor ma'nolari.**

Kesimlik shaklida mayl va modallik ham voqelanadi. Jumladan: *Kampirga aytib qo`ying, to`ydan ilgari nog`ora qoqib yurmasin.* (G`. G`ulom "Yodgor"). Bu yerda yur+masin, yur – atov birligi –[W]. Kesimlik kategoriyasi ko`rsatgichlari esa *-ma* bo`lishsizlik, *-sin* buyruq-istak maylini ifodalaydi. Kesimlik shaklida modallik ko`rsatgichi grammatik ma'nosi mavjud bo`ladi.

Masalan:

*U kelsa edi.* (xohish-istak)

*U, ehtimol kelar.* (taxmin, gumon)

*U keladi.* (neytral)

*U, menimcha, kelsa kerak.* (taxmin)

*U koshki kelsa.* (achinish, afsus) va hokazo.

Yuqoridagi misollarda gapning kesimlik shakllari quyidagilar:

1) **–sa edi;**

2) **–ar;**

3) **–adi;**


4) **– sa kerak;**

5) **–sa.**

Ta`kidlash joizki, kesimlik shakli bilan bog`liq holatda gapda turli xil kirish so`z(ehtimol, albatta, menimcha, koshki...)lar ham ishtirok etyapti. Boshqacha aytganda, kesimlik shakli ko`rsatgichlari gap tarkibini o`z valentliklari asosida kengaytirib, turlicha nutqiy jummalarni hosil qilgan.

Kesimlik qo`shimchalari tarkibida modallik, tasdiq-inkor qolgan ikki tarkibiy qsm bilan qorishiq tarzda berilishi yoki alohida ko`rsatgich orqali ifodalanishi mumkin. Masalan: **kel-sa/ng, yur- sa/ngiz.** Bu misollarda tasdiq-inkor, modallik, zamon qorishiq tarzda birga berilgan, shaxs-son alohida ifodalangan.

Quyidagi misolda esa barcha ko`rsatgichlar, ya`ni TMZShni ifodalovchi shakllar alohida berilgan [13,44; 28,33-34].



Biz yuqorida kesimlik shaklining buyruq-istak maylidagi holatini ko`rdik. Aniqlik maylida ham kesimlik shakli aytib o`tilgan grammatik ma`nolardan tashkil topadi: **muzaffar nima deyishini bilmadi** (X.Sultonov “Bir oqshom ertagi”). **Uning ko`zlari bir nuqtada qotgancha turardi.** (Sh.Isahanova “Antiq ziyofat”). Ushbu misollardagi **bilmadi** so`zida III shaxs, birlik, yaqin o`tgan zamon, bo`lishsizlik holati ifodalangan bo`lsa, **turardi** so`zida III shaxs, birlik, hozirgi zamon daom fe`li, bo`lishli shakli ifodalangan. Yoki: **Qaniydi, o`sha damlar – bolalik damlarimning dilxush lahzalari qaytib kelsaydi** (P.Qodirov) degan misolda kel/saydi kesimi shart maylida bo`lib, III shaxs birlikda, bo`lishli, kelasi zamon shaklida ifodalangan.

Kesimlik kategoriyasi shakllari ko`rsatilgan ma`nolarni bitta qo`shimcha bilan ham, bir necha qoshimcha bilan ham ifodalay oladi [22;28,34]. Masalan, “**Joyingga o`tir**” gapida “**o`tir**” so`zshaklida tasdiq, buyruq, ikkinchi shaxs, birlik ma`nolarini voqelantirishga faqat nol shakl vositasida erishilmoqda. “**Joyingga o`tirmading**” gapida esa inkor ma`nosi uchun alohida **-ma**, mayl-zamon ma`nosi uchun alohida **-di**, shaxs-son ma`nosi uchun alohida **-ng** ko`rsatgichlari mavjud. “**O`tirmading**” so`zshaklida uch xil ko`rsatgichning bo`lishi bu so`zda uch xil morfologik holat mavjud degan xulosaga olib kelmasligi kerak. “**O`tirmading**” “**o`tir**” so`zining ma`lum bir turdagi kesimlik shaklidir. Shundan kelib chiqib, shu paytgacha mustaqil kategoriya sifatida ajratib kelingan yana shaxs-son, mayl, zamon, bo`lishli-bo`lishsizlik kategoriyalarini bitta – kesimlik kategoriyasiga jamlash fikri ilgari surilgan edi [26].

Yuqorida qayd etilgan kategoriyalar tom ma`noda sintaktik vazifaga egalik bilan xarakterlanadi.

Umuman aytganda, kesimlik kategoriyasi alohida kategoriya ekanligi, alohida shakllar tizimiga egaligi bugungi o`zbek tilshunosligida ham oydinlashtirildi. Tilga olinganidek, ushbu kategoriya morfologik bo`lsa ham, sintaktik vazifaviy tomoni uni kesimlik kategoriyasi deb atashga asos bo`ladi.

Demak, kesimlik kategoriyasi har bir kesim tarkibida u yoki bu ko`rinishda (to`liq to`rtta unsur qatnashmagan bo`lishi ham mumkin), hatto [Ø] morfema bilan ifodalanishi mumkin. Lekin bu kesimlik kategoriyasining mavjud emasligidan darak bermaydi. U, albatta, har bir fe`l kesim va ot kesim tarkibida, shuningdek, atov gaplarda voqelanadi.

Yuqoridagi fikrlardan quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

Kesim ikki tarkibiy qism [W] – atov birligi va [Pm] – kesimlik kategoriyasi ko`rsatgichlaridan tashkil topadi. O`z navbatida, [Pm] quyidagi xususiyatlarni o`zida gavdalantiradi:

1. [Pm] – kesimlik kategoriyasi to`rtta unsur – tasdiq/inkor, mayl- modallik, shaxs-son, zamon ma`nolaridan iborat.
2. Kesimlik kategoriyasining to`rtta qismi bir-biridan ajralmagan holda qo`llanila oladi: **ketdi, boray, aytsin.**
3. Kesimlik kategoriyasining ushbu qismlari alohida-alohida shakllanib voqelana oladi: **ket-ma-sa-ydi-ng-iz.**
4. Kesimlik shakllari tizimida tasdiq-inkor alohida qo`llanib, modallik, mayl-zamon, shaxs-son, qorishiq holda bo`lishi mumkin: **sev-ma-di, qol-ma-y.**
5. Buning aksi bo`lib, ya`ni kesimlik shaklida tasdiq-inkor, modallik, zamon ma`nolari qorishiq holda bo`lishi mumkin: **kel-ding-mi, ol-sa-ng, ket-san-giz.**
6. Kesimlik tarkibida tasdiq-inkor alohida, modallik va zamon ma`nolari birgalikda qo`shilib ifodalanadi: **yoz-ma-di-ngiz.**
7. Kesimlik kategoriyasining ifodalanishida to`liqsiz fe`l yoki bog`lama yordamga keladi: **U meni ko`rgan edi. (P.Qodirov) Tejab ishlatgan kambag`al bo`lgan emas. (Maqol)**

8. Kesimlik kategoriyasi [Ø] morfemaga teng bo`lishi mumkin: **Sen faqat yonimda qol.** (Qo`shiqdan)
9. Atov gaplarda ham, garchi kesimlik kategoriyasi aynan ifodalanmasa-da, tasdiq-inkor, mayl-modallik, zamon, shaxs-son [Ø] ko`rsatgich bilan voqelanadi: **Bahor. Gullar ochilgan.**
10. Kesimlik kategoriyasiz kesim voqelanmaydi.

[Pm]ni gapda, gap kesimida ifodalanishiga ko`ra yana uch turga bo`lish mumkin:

1. [Pm] ma'nolarining yoyiq ifodalanishi:
  - a) fe'l kesimlarda: **Yoz, yozgin, boray.**
  - b) ot kesimlarda: **O`qituvchiman.**
2. [Pm] ma'nolarining yoyiq ifodalanishi:
  - a) fe'l markazli gaplarda: **Yozmasaydingiz.**
  - b) ot markazli gaplarda: **O`qituvchidirman.**
3. [Pm] ma'nolarining tafsiliy (analitik) tarzda ifodalanishi:
  - a) fe'l [W]li gaplarda: **O`qisa bo`ladi, olgan bo`lsangiz.**
  - b) ot [W]li gaplarda: **Bahor bo`lsa, bahor edi.**

11. Yuqorida qayd etganimizdek, [Pm] – kesimlik kategoriyasi muayyan grammatik shakllar tizimiga ega bo`lib, o`zbek tili lisoniy sathida mustaqil kategoriya sifatida alohida o`rin egallaydi.

Ushbu bobda kesimlik kategoriyasining shakllarini alohida-alohida birlik sifatida tahlil qilar ekanmiz, bu shakllar yaxlit butunlik– kesimlik kategoriyasini tashkil etishini hamda grammatik shakl valentligiga egaligi tufayli gap kesimi, ya'ni [Pm]ni shakllantirishini asoslashga harakat qildik. Mazkur bobda tahlil qilingan masalalarning yechimlari quyidagi xulosalarda o`z aksini topadi:

- o`zbek tilshunosligida kesimlik kategoriyasini murakkab va mustaqil kategoriya sifatida alohida ajratish hamda shunga asosan tavsiflash fanimizda shakllangan formal-funksional (substansial) tahlil usuli va tilimiz grammatik qurilishining formal-funksional talqini bilan chambarchas bog`liq;

- formal-funksional nuqtayi nazardan kesimlik kategoriyasi murakkab tasdiq/inkor (N), mayl-modallik (M), zamon (T), shaxs-son (P) ma'no va shakllarining birligidan tashkil topgan alohida mustaqil va kesimni shakllantiruvchi grammatik kategoriyadir:  $[Kk = N_R M_R T_R P]$ ;
- kesimlik kategoriyasi tarkibiy qismlarining har biri nisbiy semantik-funksional va lisoniy mustaqillikka ega bo'lsa ham, ularning birortasi alohidalikda kesimlik kategoriyasini tashkil etmaydi;
- atov gaplar kesim tarkibidan iborat bo'ladi va ularda kesimlik kategoriyasi ayrim o'ziga xosliklar bilan voqelanadi;
- kesimlik predikatsiyadan farqli o'laroq shaklan morfologik, vazifa jihatidan sintaktik mohiyatli sof grammatik kategoriya bo'lib, kesimlik shakli va gap markazini tashkil etish kabi lisoniy belgilari asosida aniqlanadi;
- formal-funksional talqinda gap va kesimlik kategoriyasi uzviy aloqadorlikda bo'lib, kesimlik kategoriyasida nutqda kengayish hamda lisoniy gap qurilishini belgilash qobiliyati mavjud;
- gap markazi hisoblanmish kesim  $[W]$  va  $[Pm]$  qismlaridan iborat bo'lib,  $[Pm]$  kesimlik kategoriyasi shakllari – N,M,T,P elementlaridan tashkil topadi va grammatik shakl valentligi asosida gapda alohida-alohida, qorishiq holda, to'liqsiz fe'l, bog'lama yordamida, hatto morfema bilan ifodalanadi.

## **II bob. O`zbek tilida sodda gaplarning substansial talqini.**

Ma'lumki, mustaqillik yillarida millatimiz ma'naviy qadriyatlari va axloqiy ustunlarimizning tiklanishi hamda kamol topishiga poydevor yaratildi. Ona tilimiz mavqeyining tiklanlanganligi, uning davlat tili maqomiga ega bo'lganligi shular jumlasidan. Shuning uchun davlatimiz rahbari – Islom Karimovning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida [3] ona tili va milliy ruh, milliy ma'naviyat, davlat tili madaniyati tushunchasiga e'tibor konseptual xarakterga ega. Boshqa fanlar qatorida tilshunosligimizning dolzarb muammolariga yana bir karra e'tiborni jalb qiladi. Demak, bugungi kunda ona tili, o`zga tillarga hurmat muammosi bilan birga davlat tili madaniyatini yuksaltirish asosiy vazifalardan biri bo`lsa, iste'molga kirayotgan davlat tili madaniyati tushunchasi esa axloqiy, ma'naviy kategoriyadan biri sifatida namoyon bo`lmoqda. Bu esa tilning milliy tabiati yaqqol aks etadigan grammatik qonuniyatlarni ana shu metodologik asoslarga tayangan holda chuqur tahlil qilish, muammoga til va tafakkur, til va ma'naviyat, til va madaniyat mushtarakligidan kelib chiqqan holda munosabatda bo`lishni taqozo qiladi.

Har qanday millatning o`zligi uning tilida yaqqol namoyon bo`ladi va uning ontologik belgisi sifatida amal qiladi. Ayniqsa, bu tilning grammatik qurilishida yorqin ifodasini topadi. So`zlararo bog`lanish usullari, bog`lovchi omillarning xususiyatlari va tarkibi, gap qurilishining milliy tafakkur tarziga mos bo`lishi, gap qurilishi qoliplarining milliy o`ziga xos xususiyatlari bu hodisalarning har birini milliy ruhiyat va ong, tafakkur tarzi tushunchasidan kelib chiqqan holda va u bilan dialektik aloqadorlikda o`rganishni talab etadi. Bu esa har bir grammatik hodisani qanday metodologik asos va tadqiq usullari asosida tekshirish zarurligini aniqlash muammosi bilan murakkablashadi. Ko`rinadiki, milliy tilning grammatik tizimi tadqiqida milliy ma'naviyat va milliy til dialektikasi mushtarakligida ma'naviy omillarga tayanib ish ko`rish masalaning bir jihati bo`lsa, lisoniy hodisani qaysi yo`sinda va qaysi tadqiq usullari asosida, tilshunoslikning qaysi oqim va yo`nalishlari tamoyillari, tayanch tushuncha va kategoriyalari vositasida tekshirish ikkinchi jihatini tashkil etadi. Shunday ekan, ilmiy tadqiqot tadqiq metodologiyasi

va usullarining to'g'ri tanlanishi hamda uqilishi tadqiq manbayining tekshirilayotgan qirrasini haqida obektiv xulosalar berish va uni xolis idrok qilish imkonini beradi. Chunki bir metod asosida berilgan xulosalarni boshqa metod tamoyillari asosida baholash va rad etish mumkin emasligi to'g'risida olimlarimiz ko'p bora ta'kidlashgan. Shuningdek, ishimizda sodda gaplarning lisoniy-sintaktik qurilishi va nutqiy-uslubiy qo'llanish imkoniyatlarini o'rganish maqsad qilib qo'yilgan ekan, o'zbek tili grammatikasining milliylikni aks ettiruvchi bu jihatlarni tahlil qilishda substansial tadqiq usullaridan foydalanish samarali deb bilamiz.

O'zbek tilshunosligida tilimizning mohiyati, uning xilma-xil muammolarini yoritishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar yaratilgan va yaratilmoqda. Bugun o'zbek tilshunosligi turkiy tilshunosliklar orasida peshqadamlardan ekanligi ham mubolag'a emas [39,9]. Chindan ham, tilimiz jonkuyari Nizomiddin Mahmudov ta'kidlaganidek, "o'zbek tilining mustaqillik sharoitida rivoji bilan bog'liq jarayonlarni xolis ilmiy-nazariy asoslarda tadqiq etishni yanada muntazamlashtirish maqsadga muvofiqdir" [39,9]. Bunda til, shaxs, jamiyat uchligi va bu uchlik a'zolari orasidagi munosabatlar hamda ular bilan bog'liq qonuniyatlarni ochishga qaratilgan sa'y-harakatlar yetakchilik qilmog'i lozim. Tabiiyki til, shaxs, jamiyat uchligi va uning tarkibidagi a'zolar orasidagi munosabatlar tadqiqi fanimizning keyingi taraqqiyotini belgilovchi ilmiy izlanishlarni talab etadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'zbek tilshunosligida til, shaxs, jamiyat uchligida asosiy o'rinni egallaydigan til tushunchasi hodisasi turli ilmiy yondashuvlar asosida o'rganilgan va buning natijasi o'laroq o'zbek formal grammatikasi, o'zbek substansial tilshunosligi, mazmuniy tilshunoslik kabi yo'nalishlar shakllangan, mazkur ilmiy yo'nalishlarning har birida til o'ziga xos tadqiq usullari va metodologiya asosida talqin etilgan. Shunga qaramay, bugun tilning shaxs va jamiyatga xizmat qilishini so'zlovchi (tildan foydalanuvchi)ning turli nutqiy ehtiyojlarini qondirish vositasi, shuningdek, lisoniy mavjud imkoniyatlar manbasi sifatida individual hamda ijtimoiy-kommunikativ vazifa

bajarishi bilan bog`liq masalalar o`z yechimini topmagan. Ayni paytda, mazkur masalalarni yechish va ilmiy asoslash tilshunoslikda bu hodisaning to`laqonli talqini bilan aloqadordir.

O`zbek tilshunosligida XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida formal yo`nalish global ravishda sanoyi ishlab chiqarish ehtiyojlari bilan shakllangan va o`z oldiga, asosan, ommaviy savodxonlikni ta`minlash, zamonaviy til me`yorlarini ommalashtirish kabi o`z davri uchun o`ta zarur masalalar yechimini maqsad qilib qo`ygan edi [42,35]. Binobarin, formal yo`nalishda tilga sanab o`tilgan masalalar kesishgan nuqtadagi tadqiq manbasi sifatida qaraladi. Tilshunoslik nazariyasi ham, ona tili ta`limi ham mana shunga xizmat qiladi. Formal tishunoslikning metodologik asosi empirik tavsif usuli bo`lib, unda lison-nutq dixotomiyasi oddiy mantiq(formal logika)dagi mavhumlik-muayyanlik sifatida tushuniladi [42,35].

Ma`lumki, o`zbek tilshunosligida formal tahlil tamoyillarining keng va izchil ommalashishida ustoz Ayub G`ulomovning xizmatlari beqiyosdir. Zero, ustoz o`zbek tilshunosligining jadal rivojlanishiga formal tahlil o`z oldiga qo`ygan davr talablariga mos va muhim madaniy-ma`rifiy muammolarni yechishda ulkan hissa qo`shgan. Ayni paytda, fidoyi olimning ulkan ilmiy merosi va cheksiz xizmatlari natijasi o`laroq, o`zbek tilshunosligining yutuqlari hozirgi kunda va kelajakda tilni tadqiq etishning lingvistik asosini tashkil etadi. Tilni tizim sifatida tadqiq etish asosida shakllangan struktural, semantik hamda substansial tahlil yo`nalishlari, o`z navbatida, o`zbek formal tilshunosligi yaratgan mustahkam lingvistik asoslar poydevoriga tayanadi.

XX asrning 90-yillarida o`zbek tilshunosligi fanida o`ziga xos formal-funksional (zotiy, keyinchalik "substansial" deb atalgan) yo`nalish shakllandi va bu haqdagi qat`iy xulosalar tilshunos M. Qurbonovanning "O`zbek tilshunosligida formal-funksional yo`nalish va sodda gap qurilishining talqini" nomli tadqiqotida bayon etilgan [51]. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, o`zbek substansial tilshunosligi o`z davrining ilg`or lingvistik maktabi hisoblangan Praga strukturalizmidan lison-nutqni farqlash, lisoniy va nutqiy birliklarning tabiati

haqidagi ilmiy qarashlarni qabul qildi, shuningdek, bu qarashlarni dialektik falsafaning substansiallik (zotiylik) omili hamda umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab (qisqacha – UMIS) va yakkalik, hodisa, voqelik, oqibat (qisqacha–YHVO) kategoriyalari mazmuni bilan boyitdi. Natijada, lison va lisoniy birliklar UMIS sifatida, nutq va nutqiy birliklar esa YHVO mavqeyida talqin etildi. Boshqacha ifodalaganda, asosiy lingvistik tushunchalar dialektik mazmun bilan to'ldirildi hamda dialektik kategoriyalarga mos ravishda tahlil qilindi. O'zbek funksional tilshunosligi Praga strukturalizmidan bir pog'ona yuqoriga ko'tarildi va jahon tilshunosligi rivojiga samarali hissasini qo'shmoqda.

Fanimizda tilning ontologik tabiatini o'rganishni bosh madsadiga aylantirgan yo'nalish XX asrning oxirida "S.N.Ivanov 1960-yillarda asos solgan, bosh tamoyili struktural tahlilni ongli, dialektik, metodologik tamoyillar asosida takomillashtirib, tilga tafakkurni shakllantiradigan va rivojlantiradigan, nutqiy muloqotda minglab shakl va ko'rinishlarda voqelana oladigan, har bir shakli o'ziga xos maqsad va vazifaga ega bo'lgan imkoniyatlar xazinasi sifatida yondashish bo'lgan o'zbek substansial tilshunosligini rivojlantirishga qaratilgan edi", – deb ta'riflaydi professor H.Ne'matov [42,36]. Bugungi kunda qo'lga kiritilgan ilmiy yutuqlar, chindan ham, mazkur yo'nalishda til talqini yuqori bosqichga ko'tarilganligidan dalolat beradi.

Til tizimida lisoniy birlikni muayyan vazifani bajarishga xoslangan shakl sifatida talqin etuvchi yo'nalish va uning tadqiq usullari o'zbek tilshunosligida Yevropa strukturalizmi, rus sistem tilshunosligi hamda turkiyshunos olim S.N.Ivanov boshlab bergan tadqiqotlar ta'sirida yuzaga kelgan substansial yondashuvda lisoniy birlik nutqda voqelanuvchi barcha ma'no va vazifalarni o'zida mujassamlashtirgan zot sifatida talqin etiladi [19;25;32;46;48;49;51]. Sistemaviylik qonuniyatiga muvofiq, til tizimida lisoniy zot uning tarkibiga kiruvchi muayyan unsur sifatida mavjud bo'ladi. O'z navbatida, til tizimi lisoniy zot, ya'ni unsurlardan tashkil topadi. Ma'lumki, tizim uni tashkil etuvchi qismlarning o'zaro shartlangan zaruriy munosabatlari yig'indisidan kattaroq mohiyatga ega bo'lib, lisoniy zot shu mohiyatni yuzaga chiqaruvchi birlik

hisoblanadi [40,55;41]. Demak, tizimga xos substansiallik tizimning asl mohiyatini belgilovchi muhim xususiyatdir. O`zbek tilini substansial yo`nalish asosida o`rganish til tizimining barcha sathlari va uning birliklariga xos lisoniy qonuniyatlarni aniqlashga imkon berdi.

## **2.1. [WPm]=SG – sodda gapning eng kichik qurilish qolipi sifatida.**

O`zbek tilshunosligida sintaktik qurilishning sistem xususiyatlari boshqa sath hodisalariga nisbatan birmuncha keyinroq tadqiq etila boshlagan bo`lsa-da, bu borada sintaksisning asosiy birliklari bo`lgan so`z birikmasi va gap qurilishiga doir jiddiy ishlar amalga oshirildi. O`zbek tili sintaktik qurilishining sistem tadqiqi va uning natijalarini tavsiflashdan avval fanimizda gap qurilishining formal talqini hamda uning o`rni haqida fikr yuritish maqsadga muvofiqdir.

O`tgan asrning 20-yillarida o`zbek tili grammatikasiga ilmiy tamal toshlari qo`yila boshladi. Gap haqida Abdurauf Fitratning “Sintaksis”(“Nahv”) kitobida (1924-yilda chop etilgan) bir qancha ma`lumotlar berildi va bu darslik 1925-1930-yillarda uch marta nashr etildi. Bu kitobda gapga quyidagicha ta`rif berilgan: ”Bir fikr, bir o`y anglatuvchi so`z qo`shumi gapdir”. Shu davr talablariga mos ravishda vujudga kelgan Fitratning “Sintaksis” asari bilan bir qatorda N.Said, A.Yo`ldoshevlarning ”Grammatika”, H.G`oziyevning ”O`zbek tili grammatikasi” kitoblarini tilga olish o`rinlidir. Ushbu darsliklarda sodda gap va qo`shma gaplarni farqlashda ko`proq ega ga tayanilgan. O`z navbatida, bu ega va kesimni subekt va predikat bilan qorishtirib, tahlil qilishga olib keldi. Ahamiyatli tomoni shundaki, o`sha davr sintaksisi uchun muhim bo`lgan *gap, sodda gap, gap bo`laklari, ega, kesim, ikkinchi darajali bo`laklar* kabi tushunchalar Yevropa tilshunosligidan kirib keldi. 1940-yilda esa A.G`ulomovning ”Ўзбек тили грамматикаси” nomli kitobi nashrdan chiqdi. Bu kitob pedagogika bilim yurti o`quvchilari uchun sintaksisdan darslik bo`lib, unda sodda gap boshqa darsliklardagiga qaraganda kengroq yoritilgan edi. Darslikning ahamiyatli tomoni– unda sintaksisning nazariy tahlil usullari mukammal shakllanganligidadir. Quyidagi dalillar mazkur tahlil usullari haqida tasavvurni aniqlashtiradi:

1.Sodda gap ikki bosh bo`lakdan –ega va kesimning birikishidan iboat.

2.Kesim ega haqidagi biror xabarni tasdiq yoki inkor formada ifodalashga xizmat qiladi. Bosh bo`laklar ichida egaga mavqe beriladi. Kesim ega bilan shaxs-sonda moslashadi.

3.Sodda va qo`shma gaplarni aniqlashda egaga tayaniladi [26,23].

Tilshunos olimi R.Sayfullayeva ta`kidlaganidek, ”bosh bo`laklarga bunday yondashish mantiqiy subekt va predikat munosabatini grammatik ega va kesim munosabati bilan qorishtirib yuborishga olib keladi. Bu esa o`zbek tilshunosligida gap qurilishi Yevropa tilshunosligida gap qurilishi haqidagi ilmiy qarashlar ta`siri ostida shakllanganligidan va o`zbek tili darsliklari ham rus tili darsliklari asosida tuzilganligidan darak beradi. Rus tili darsliklari namunasi asosida tuzilgan qo`llanmalar XX asrning 90-yillarigacha amalda bo`ldi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan Yevropa tilshunosligi me`yorlarida o`zbek tilini o`rganish ehtiyoji tilshunoslarimiz oldiga ona tili me`yorlarini belgilash va ommalashtirish, ”ona tili ta`lim mazmunini yangilash, o`zbek tili grammatik qurilishini rus tili grammatik me`yorlari chizmasi asosida baholash asoratidan qutqarish“ kabi maqsadlarni qo`ydi. O`zbek tilshunosligining Hind-Yevropa tillari va tilshunosligi ta`sirida rivojlanganligi o`zbek tilininig sintaktik talqinida ham bir talay muammolarni keltirib chiqardi.

Tilshunos olimi M.Abuzalova qayd etganidek, an`anaviy o`zbek tilshunosligi Moskva formal tilshunosligi tamoyillariga tayangan holda o`zbek tili gap qurilishi talqinida rus tili ichki qurilishiga xos qonuniyatlarga ustuvorlik berib, tobelikning turkiy tillarga xos “o`ngdan chapga” ko`rinishini e`tibordan chetda qoldirdi. Oqibatda, boshqa gap bo`laklari (“chapdan o`ngga”) kesimga va faqat kesim egaga (“o`ngdan chapga”) tobelanishi haqidagi mantiqiy-grammatik qonuniyat “hukmronligi” vujudga keldi [46]. Bu esa gapni baholash markazida ega turishi haqidagi nazariyaga tayanishlarida ko`zga tashlanadi. Ushbu holat kesimning, xususan, gapning lisoniy mohiyati nazardan chetda qolishiga sabab bo`ldi. Natijada, gapga lisoniy birlik sifatida qarash, unga mufassal ta`rif berish, shuningdek, gapning ontologik tavsifini berish ham muammo bo`lib qoldi. Bu

masalalar bilan XX asrning 90-yillariga kelib, o`zbek substansial tilshunosligi shug`ullandi.

O`zbek substansial tilshunosligining vakillari bo`lgan H.Ne`matov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, M.Qurbonova, M.Abuzalova, S.Nazarovalar o`z tadqiqotlarida o`zbek tili sintaktik hodisalarida ham substansial va aksidensial jihatlarni farqladilar, gap va so`z birikmalarining lison-nutq farqlanishi nuqtayi nazaridan izchil tavsifini berdilar hamda o`z tadqiqotlarida so`z birikmasi, sodda gap, qo`shma gap, so`z-gaplarning substansial mohiyati, lisoniy-sintaktik qoliplarini ishlab chiqishdi [20;21;26;36;46;49;51]. Namlari sanab o`tilgan tilshunoslar gapning eng kichik qurilish qolipini lisoniy birlik sifatida qabul qilishdi.

O`zbek tilining sintaktik qurilishi o`rganila boshlangandan so`ng tilshunoslar gapning faqat tashqi tomoniga emas, balki ichki tomoniga ham e`tibor qarata boshladilar. Formal sintaksis bevosita kuzatishda berilgan , og`zaki hamda yozma shakllarda voqelangan hodisalarni o`rganishga diqqatini qaratdi va uning tahlil asosini aynan bevosita kuzatishda berilgan nutqiy sintaktik hodisalar tashkil etdi. Formal tilshunoslikda lison va nutq hodisalarini farqlamaslik, imkoniyat va voqelik, umumiylik va xususiylik kabi tushunchalarni chalkashtirish sintaktik hodisalarning substansial mohiyatini ochishga to`squinlik qildi. Shu asosda “an`anaviy sintaksisda gapning bir va ikki tarkiblilik, asosan, sodda gap materiali asosida o`rganiladi” [32] hamda sodda gaplar yig`iq va yoyiq turlarga bo`linadi. O`zbek tilshunosligi rus tilshunosligi zamirida rivojlanganligi, shuningdek, logik oqimning ta`siri tufayli sodda gaplar [S–P] qolipida tasvirlandi va talqin etildi. Gap haqida zamonaviy ta`limot yaratgan zabardast olim A.G`ulomov va uning izdoshlari o`zbek tilida gap qurilishiga rus tilining grammatik qurilishiga xos me`yor va qoidalar asosida yondashdilar. Buni olimning “Sintaksis asosida gap haqidagi ta`limot yotadi” degan qarashi ham yaqqol tasdiqlaydi.

A.G`ulomovning mazkur qarashi o`zbek tilining substansial tabiatiga mos kelmas edi.Chunki “gapning asosi va yadrosi ega va kesim” degan fikrlariga zid o`laroq, “gap tushunchasi kesim bilan zich bog`langandir” degan qarash ham

mavjud. Jahon tilshunosligidagi sistemaviy oqim zaminida o`zbek tilshunosligi ham shakllandi va taraqqiy etdi. O`zbek tilshunosligida tilga sustema sifatida yondashilib, lison va nutq hodisalari farqlandi hamda gapning til sathidagi eng kichik qolipi ishlab chiqildi. Tilshunos M. Qurbonova yozganidek, "Nutqimizda berilgan va an'anaviy sintaksisimizda atroflicha tahlil etilgan gap uning shakl va vazifa turlari til sathida ongimizda mavjud bo`lgan umumiylikning, gap eng kichik qolipining turli lug`aviy qurshov va nutq sharoitlarida minglab muayyan shakllarda yuzaga chiqishida namoyon bo`lishi aniqlandi" [32,67].

Tilga sistemaviy yondashuvning negizi lison-nutq hodisalarini farqlash bo`lganligi sababli tadqiqotchilarning bir guruhi sistem sintaksis tahlilini izchil ravishda gapning til sathidagi eng kichik (minimal) qurilish qolipini ishlab chiqishdan boshladi. Negaki, yaxlit sintaktik talqinni ishlab chiqish uchun gap qolipi bosh mezon vazifasini o`taydi. Gapni o`rganish uchun uning "joni"ni - "til sathidagi eng kichik qolip" [32,45] ni belgilash zarur edi.

Tilshunoslar sodda gapning til sathidagi mohiyatini belgilashda gap haqidagi sintaktik nazariyaning quyidagi talqiniga asoslanishdi:

1. Gapning eng kichik qurilish qolipi lisoniy birlik sifatida ongimizda mavjud umumiy birlik bo`lib, u nutqimizda fikrni lisoniy qonunlarga muvofiq tarzda shakllantiruvchi va voqelantiruvchi imkoniyatdir.

2. Gapning eng kichik qurilish qolipini belgilashda uning tashqi qurilishi, ichki qurilishi va mohiyati ajratildi.

3. Gapning eng kichik qurilish qolipidan o`rin oladigan tarkibiy qismlarning mohiyatini belgilashda birikuvchanlik (valentlik), ya`ni lug`aviy birliklarga xos ma`noviy (semantik) va sintaktik, shuningdek, kesimlik shakllariga xos morfologik birikuvchanliklarga asoslanildi.

4. O`zbek tilida gapning eng kichik qurilish qolipini belgilashda Hind-Yevropa tillari bilan turkiy tillar orasida gap qurilishidagi asosiy tafovut diqqat markazida turdi. Bu farq esa quyidagicha: Hind-Yevropa tillariga bir tarkibli gaplar umuman xos emas va gap qech qachon egasiz bo`la olmaydi. Turkiy tillar, xususan, o`zbek tilida "Men xatni yozaman, sen xatni olib kelasana" gapi bilan "Xatni yozaman, olib

kelasani" gapni orasida keskin farq yo`q, ya`ni o`zbek tilida kesim shaxs-son jihatdan mukammal shakllangandir [32,45].

Yuqorida keltirilgan to`rt asos inobatga olinib, sodda gapning eng kichik qurilish qolipi [WPm] sifatida belgilangan. Gapning lisoniy-sintaktik mohiyatini umumlashtiruvchi til sathidagi eng kichik qurilish qolipi tilshunos M.Abuzalova tomonidan aniqlangan. Sodda gapning til sathidagi eng kichik qurilish qolipi M.Abuzalovanning "Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши" mavzuyidagi ilmiy ishida [46] maxsus tadqiqot manbayi bo`ldi. Mazkur ishda o`zbek tilida gapning lisoniy bosqichdagi eng kichik qurilish qolipi – [WPm] – (atov birligi – [W] + kesimlik ko`rsatgichlari – [Pm]) ko`rinishiga ega ekanligi isbotlangan. Shu asosga tayangan holda sodda gapning nutqiy va lisoniy qurilishi orasidagi asosiy tafovut ochib berilgan edi [46, 5].

Bunda [W] – kesimning, gap kesimining atash, lug`aviy ma`no bildirishga xizmat qiladigan qismi bo`lib, mustaqil so`z turkumiga oid bo`lgan, ya`ni kesim vazifasida kela oladigan so`zga, so`z birikmasiga, kengaytirilgan birikmalar (sifatdosh, ravishdosh, harakat nomlari oborotlari)ga teng kelishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, [W] lisoniy qolipdagi imkoniyat bo`lib, nutqda atov birligi vazifasini o`tay oladigan va shu nutqning istagan bir birligi (so`z, so`z birikmasi va hatto gap) shaklida voqelanishi mumkin. [Pm] esa atov birligi [W]ni gap qolipi shakliga keltiruvchi vositalar majmuasining ramzi bo`lib, u nutqda kesimlik kategoriyasi ko`rsatgichlari shaklida reallashadi. Demak, M.Abuzalova ta`kidlaganidek, "til bosqichida gap atov birliklarining kesimlik kategoriyasi ko`rsatgichlari bilan shakllangan ko`rinishidir. Bu esa [WPm] ga tengdir" [46, 9]. Gapni bunday ta`riflash Yevropa tilshunosligi va unga hamohang ravishda A.G`ulomov tomonidan o`zbek tilshunosligida ishlab chiqilgan gapning mohiyati "ega+kesim" munosabatidagi butunlikdadir, degan ta`limotini turkiy tillarning ichki xususiyati – kesimning hamisha to`liq shakllanganligi sabali gap egasining shaxsi va soni aniqligi asosida to`ldiradi. Ega gapning eng kichik qurilish qolipi tarkibiga kirmaydi va gap qurilishida alohida mavqega molikdir [46, 9].

Hind-Yevropa tillaridan farqli o'laroq, turkiy, xususan, o'zbek tilida kesim grammatik eganing shaxs va sonini doimo aniq ko'rsatib keladi. Chunonchi:

shaxs	birlik	shaxs	ko`plik
I	<i>keldim</i>	I	<i>keldik</i>
II	<i>kelding</i>	II	<i>keldingiz</i>
III	<i>keldi</i>	III	<i>keldilar</i>

Ko`rinib turibdiki, o'zbek tilida kesim o'z shakli bilan harakat(belgi)ning qaysi shaxs ba songa mansubligini ifodalab turibdi. Bu esa o'z navbatida ega mavqeyining gap tarkibida pasayishiga, ko`p hollarda yo`qolishiga olib keladi. Negaki, kesimning morfologik tarkibi ega haqida to`liq ma'lumot beradi. Shuning uchun gapning lisoniy bosqich, ya'ni zaruriyat, majburiyat, imkoniyat va umumiylik bosqichidagi qolipi tarkibida ega o`rin ololmaydi. Buni tilshunos olim M. Abuzalova quyidagicha izohlaydi: "Ega gap tarkibida moddiy shaklda ifodalanishi ham mumkin, ifodalanmagan bo`lib, kesim tarkibidan anglashilib turishi ham, shuningdek, gap tarkibida bo`lmasligi va bo`lolmasligi ham mumkin. Ammo eganing gapdagi mavqeyini aniqlovchi, to`ldiruvchi, hol bilan tenglashtirib bo`lmaydi. Kesim markaziy bo`lak bo`lsa, ega birinchi darajali bo`lakdir" [46, 10]. Zero, [WPm]=SG qolipining [Pm] qismida tasdiq-inkor, mayl, zamon va shular bilan birga, shaxs-son ma'nosi borki, gapning egasi keyingi grammatik ma'noni aniqlab, ochib keladi. Aynan shu ma'nosi asosida gaplarda ega tiklanishi yoxud tiklanmasligi mumkin.

Gaplarda ega tiklanishi yoxud tiklanmasligining sababi to`g`risida ko`plab tilshunoslar umumiy qarash ostida birlashadilar: o'zbek tilshunosligida boshqa turkiy tillarda bo`lgani kabi shaxs-son kategoriyasi mustahkam o`ringa ega bo`lib, u bilan shakllangan kesim, harakat(holat, belgi)ning qaysi shaxs-songa oidligiga ishora qilib turadi, bu esa gap tarkibida ega mavqeyining pasayishiga, ko`p hollarda uning tushib ketishiga olib keladi [13;19;39;46;32;51]. Demak, o'zbek

tilida zarurat bo`lmasa, ega tushurib qoldiriladi va kesimning o`zi gapni tashkil etadi. Qiyoslang:

1. *Talabaman.*

2. *O`qidim.*

3. *Tayyorlanyapmiz.*

4. *Bormoqchi edingiz.*

O`zbek tillining yaxlit sintaktik ta`limotini ishlab chiqishda gapning lisoniy sathdagi eng kichik qurilish qolipi, ya'ni [WPm]=SG asos qilib olindi va atroflicha tadqiq etildi. Bunday substansial yondashuv o`zbek tili grammatik qurilishi talqinini tubdan yangilashga olib keldi.

## **2.2. [WPm]=SG qolipining variantlari.**

Gapning eng kichik qolipi, til birligi, imkoniyat va umumiylik sifatida ongimizda yashovchi [WPm]=SG har qanday ong birligi kabi bevosita kuzatishda berilmagan. Aniqrog`i, biz [WPm]=SGning rang-barangligini, xilma-xilligini va turli-tumanligini to`laligicha hech qachon ko`ra olmaymiz, eshita olmaymiz, yoza olmaymiz. Faqat bizning ongimizgina uni butun murakkabligida qamrab oladi. Chunki ongimiz [WPm]=SGni gapning umumiyliigi va imkoniyati sifatida umumlashtirar ekan, [WPm]=SGning tarkibiy qismlari bo`lgan [W]ning ham, [Pm]ning ham yuz minglab juz`iy xususiyatlaridan ko`z yumadi. Chunonchi, [W] vazifasida minglab o`zbekcha so`zlardan istalgan biri kela oladi va har biri alohida xususiylik bo`lib, qator o`ziga xosliklarga egadir. "Gapning umumiy qolipini shakllantirganimizda biz shu so`zlarning juz`iy xususiyatlariga (ma`nosi, turkumi, uslubi, bo`yog`i va h.) e`tibor bermadik va hamma so`zlar uchun umumiy bo`lgan bitta xususiyat – nutqda atash, nomlash qobiliyatiga tayandik", –deb yozadi M.Abuzalova [46]. [WPm]=SGning [W] qismi o`rnida nafaqat oddiy so`zlar, balki so`zlarning xilma-xil birikishidan tuzilgan milliardlab so`z birikmalari ham kelishi mumkin va bu so`z birikmalarining har birida o`ziga xos xususiyatlar bor. [WPm]=SG qolipida [W]ning o`rnini egallay oladigan birliklar sirasiga so`z birikmalari ham kiritilar ekan, miqdoran cheksiz bo`lgan so`z birikmalarining har biri uchun xos bo`lgan juz`iy xususiyatlar e`tiborga olinmay, ularning bitta

umumiy xususiyati, qobiliyati – atash, nomlash vazifasini bajara olishiga tayanilgan. Xuddi shunday fikrni [WPm]=SGning [Pm] qismiga nisbatan ham aytish mumkin. O`zbek tilida [Pm]ning yuzdan ortiq yuzaga chiqish shakllari mavjud. Har bir so`z shaklining juz'iy xususiyatlari e'tiborga olinmay, barcha shakllar uchun umumiy bo`lgan tasdiq/inkor, mayl/zamon, shaxs/son ma'nolarining birgalikda ifodalanishiga asoslanib, [Pm] bir butunlik sifatida olingan. [W] ham, [Pm] ham nutqda cheksiz miqdorda va xilma-xil turda voqelanadi. Biz bularning barchasini hech qachon sanay olmaymiz. Zero,ki, o`zbek nutqida qo`llanilgan, qo`llanilayotgan va kelgusida (o`zbek tilida gapning yangicha qurilish qolipi rivojlanmaguncha) qo`llaniladigan barcha gaplarda [WPm]=SG u yoki bu shaklda voqelanadi. [WPm]=SG – gapning eng kichik qolipi til birligi sifatida nutqdagi yozma va og`zaki, imo-ishora va boshqa shakldagi gaplar sifatida voqelanadi. Biz uning voqelanish shakllarini sanab nihoyasiga yeta olmaymiz. Lekin fonema va morfemalarning cheksiz nutqiy ifodalanish shakllarini ma'lum bir ko`rinish xillari, tiplariga, cheksiz xususiy grammatik ma'nolarini oraliq grammatik ma'nolariga birlashtirganimizdek (bunday oraliq birliklar sistemaviy tilshunoslikda allo nomi bilan ataladi: allofon, allomorf va h.), [WPm]=SGning cheksiz nutqiy voqelanish shakllarini umumiylik bilan, ya'ni [WPm]=SG, uning muayyan voqelanishi – nutqdagi konkret gaplar oralig`ida turgan [WPm]=SG turlarini, ya'ni allogaplarni ajratamiz va sanab o`tishimiz mumkin. Bu bo`limning sarlavhasini shu ma'noda tushunish lozim.

Ma'lumki, [Pm]ning ma'no tarkibi tasdiq/inkor, mayl/zamon, shaxs/son kabi tarkibiy qismlardan iborat. Bu tarkibiy qismlarning har biri asosida [WPm]=SG, uning nutqdagi eng qisqa ko`rinishi – ixcham gaplar kengayishi mumkin. [Pm]ning har bir ma'no tarkibi asosida ixcham gaplarning kengayishi o`z xususiyatlariga ega va ko`pincha, mayl, zamon shakllarining ma'nolari bilan aloqadordir. Lekin [Pm]ning tarkibidagi bir ma'no turi, aniqrog`i, shaxs/son ma'nosi asosida ixcham gapning kengayishi gap qurilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ham bo`lsa, gap tarkibida eganing bo`la olishi yoki bo`la olmasligi masalasidir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, ega gap qurilishida aniqlovchi, to'ldiruvchi, hollardan ko'ra boshqacharoq mavqega ega. An'anaviy tilshunosligimizda ikkinchi darajali bo'laklar deb ataladigan bu bo'laklarning in'ikosi (aksi, simvoli, qandaydir ishorasi) [WPm] tarkibida yo'qdir. Lekin egaga ishora [Pm] tarkibida mavjud.

Egani ifodalovchi qandaydir ishoraning gap markazi, bosh bo'lagi hisoblangan kesimda bo'lishi eganing gap qurilishida boshqa gap bo'laklaridan farqli o'rin tutishini ko'rsatadi. Ega gapning qurilishi uchun majburiy, zaruriy bo'lak mavqeyini egallasama ham, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hollardan ko'ra yuqori mavqega ega, chunki uning belgilari [WPm] tarkibida mavjuddir. Shuning uchun [WPm] ixcham ko'rinishda bo'lgan kesimni gap markazi, gapning bosh bo'lagi deb baholangan bo'lsa, ega gapning birinchi darajali bo'lagi sifatida qabul qilingan. Ixcham sodda gaplarda eganing bosh bo'lakka ishora orqali tiklash mumkin yoki mumkin emasligiga ko'ra ixcham sodda gaplar ikki turli bo'ladi (ot markazli gaplar ham, fe'l markazli gaplar ham):

- a) ikki tarkibli gaplar;
- b) bir tarkibli gaplar.

Ikki tarkibli ixcham sodda gaplarda kesim tarkibidagi shaxs/son ko'rsatgichlari asosida gapning egasi tiklanishi mumkin:

*Yozdim* → *Men yozdim.*

*Yuvdi* → *U yuvdi.*

Bir tarkibli ixcham sodda gaplarda kesim tarkibida III shaxs birlik son ma'nosiga ishora bo'lsa ham, gapning egasini tiklash mumkin emas. Chunonchi, "*Yuvildi*", "*O'qisa bo'ladi*", "*Aytish mumkin*", "*Bahor edi*" va h.

Eganing gapda ifodalangan va ifodalanmaganligiga ko'ra ikki tarkibli sodda gaplarning o'zi yana ikki turli bo'ladi:

- a) ikki tarkibli egali sodda gaplar;
- b) ikki tarkibli egasiz sodda gaplar.

Faqat ega bilan kengaygan ikki tarkibli sodda gapga nisbatan sodda yig'iq gap an'anaviy tushunchasini ishlatishimiz mumkin.

Bir tarkibli sodda gapning yig`iq ko`rinishi ixcham gapga teng bo`ladi. Shunday qilib, [W]ning, [Pm]ning ifodalanishi va [Pm] asosida kengayishiga ko`ra gaplarning quyidagi turlarini berish mumkin.

### **I. Bir tarkibli gaplar.**

1. Ot markazli yig`iq kesimlikli ixcham sodda gap.
2. Ot markazli yoyiq kesimlikli ixcham sodda gap.
3. Ot markazli analitik kesimlikli ixcham sodda gap.
4. Fe`l markazli yig`iq kesimlikli ixcham sodda gap.
5. Fe`l markazli yoyiq kesimlikli ixcham sodda gap.
6. Fe`l markazli analitik kesimlikli ixcham sodda gap.

### **II. Ikki tarkibli gaplar.**

1. Ikki tarkibli egasiz ot markazli yig`iq kesimlikli ixcham sodda gap.
2. Ikki tarkibli egasiz ot markazli yoyiq kesimlikli ixcham sodda gap.
3. Ikki tarkibli egasiz ot markazli analitik kesimlikli ixcham sodda gap.
4. Ikki tarkibli egasiz fe`l markazli yig`iq kesimlikli ixcham sodda gap.
5. Ikki tarkibli egasiz fe`l markazli yoyiq kesimlikli ixcham sodda gap.
6. Ikki tarkibli egasiz fe`l markazli analitik kesimlikli ixcham sodda gap.
7. Ikki tarkibli egali ot markazli yig`iq kesimlikli sodda gap.
8. Ikki tarkibli egali ot markazli yoyiq kesimlikli sodda gap.
9. Ikki tarkibli egali ot markazli analitik kesimlikli sodda gap.
10. Ikki tarkibli egali fe`l markazli yig`iq kesimlikli sodda gap.
11. Ikki tarkibli egali fe`l markazli yoyiq kesimlikli sodda gap.
12. Ikki tarkibli egali fe`l markazli analitik kesimlikli sodda gap.

[W] asosida kengayish, aslida, [W] vazifasida kelgan so`zning semantik valentligi asosida kengayishidir. Albatta, so`zning kengaytiruvchilari va gap bo`laklari orasidagi munosabatlar mustaqil bir tadqiqot manbayidir. Lekin biz nutqda voqelangan gaplarning qoliplari haqida so`z yuritar ekanmiz, bu masalaga hech bo`lmasa, bir oz to`xtalib o`tishimiz zarur. Nutq tizma tabiatiga ega. Nutqning tizmalik tabiati nutqda yuzaga chiqqan har bir hodisaning ketma-ketligini talab qiladi. So`zning kengaytiruvchilari (so`z semantik valentliklarining

aktantlari) ham nutqda birin-ketinlik bilan – kengaytiruvchi (tobe) kengaytiriluvchidan (hokimdan) oldin keladi va albatta, gap qurilishida – voqelangan gap qolipida alohida bir o`rin olib, gapning voqelangan qurilishiga ta`sir etadi.

Nutqdagi gaplar yuqorida ko`rsatilgan qurilish xususiyatlaridan boshqa yana o`nlab ko`rsatgichlarga – nutqiy xususiyatlarga va nutqiy ma`nolarga ega bo`lishi mumkin. Ishimizda ko`rsatilgan til bosqichidagi sodda gapning 6 asosiy qurilish qolipi nutqda voqelanishi uchun boshqa xususiyatlarga ham ega bo`lishi kerak.

Bulardan biri–ohang, intonatsiya va u bilan uzviy bog`liq bo`lgan gapning ifoda maqsadiga ko`ra darak, so`roq, buyruq, undov, his-hayajon, so`roq-undov ( ritorik) va hokazo ma`nolarga ega bo`lishidir. Bundan tashqari, gap nutqda, albatta, ma`lum bir modal ma`nosiga ko`ra neytral, gumon, ishonch, taxmin, taajjub kabi ma`nolarga ega bo`lishi mumkin. Gapda ega ifodalanmagan bo`lishi, umuman, bo`lmasligi, majhul, aniq, umumlashgan va noaniq bo`lishi mumkin. Shu kabi ma`nolar gapning tildagi eng kichik qolipiga, umuman, aloqador emas. Shuningdek, o`zbek tilshunosligida vositali va vositasiz to`ldiruvchining yigirmaga ga yaqin turi, holning qirqdan ortiq xili ajratiladi hamda nutqda bunday to`ldiruvchi yoki holning bittasi bilan kelgan gap hol va to`ldiruvchining ikkinchi turi bilan kelgan gapdan, albatta, farq qiladi. Lekin bu farqlar ham gapning tildagi kichik qolipiga–o`zbek jamiyati a`zolari uchun gap ramzi sifatida mavjud bo`lgan umumiy, zaruriy va majburiy bo`lgan birlik [WPm]=SG va uning asosiy qurilish ko`rinishlari, ya`ni:

$$\begin{aligned} [IWPm I]=SG, & \quad [IWPm Yo]=SG, \\ [\text{Ə}+ IIWPm Yi]=SG, & \quad [\text{Ə}+ IIWPm Yo]=SG, \\ [\text{Ə}- IIWPm Yi]=SG, & \quad [\text{Ə}- IIWPm Yo]=SG \end{aligned}$$

qoliplariga aloqador bo`lmaydi [46]. Balki, shu qurilish qoliplarining shaxsni tavsiflash, gap markazini hamda kesimlik ko`rsatgichlarini moddiy shaklda ifodalash, modal ma`nolarni berish, gapni ifoda maqsadiga ko`ra nutq sharoitiga moslashtirish, gapda ohang tugalligini shakllantirish kabi tom ma`noda nosintaktik hodisalarning biz yuqorida sanab o`tgan [WPm]=SG va uning qurilish

ko`rinishlarining ustqurmasidir. Bunday gap qurilishiga aloqador bo`lmagan hodisalar nutqdagi muayyan gaplarda nosintaktik hodisalarning gap qurilishidagi aksi – in`ikosi – tajallisi sifatida qaralishi lozim.

Tajallilanuvchi bu ma`nolar nutqdagi gaplar uchun benihoya zarur va ular gapdan tashqarida bo`lishi mumkin emas. Lekin ulardan birortasining ham gap qurilishida ahamiyati yo`q. Shuning uchun ayni bir xil qurilishdagi gap ifoda maqsadiga ko`ra darak ham, so`roq, buyruq ham, undov ham bo`lishi, modal ma`nosiga ko`ra qat`iy ishonch ham, neytral ham, taxmin ham bo`lishi mumkin. Shunday ekan, lisoniy tahlilda lison va nutq bosqichlarini farqlar ekanmiz, sodda gapning lisoniy qoliplari nutqda voqelanishi uchun qaysi kategoriyalar prizmasidan o`tishini, bu o`tish jarayonida qanday ma`no bo`yoqlariga bo`yalib chiqishini va nutqda bevosita kuzatishda berilgan gap qoliplarining mana shu “bo`yoqxona”lardan o`nlab ranglarga “bo`yalib” chiqqan hosilasi ekanligini unutmashimiz kerak. Shunday ekan, bu bobda o`rganilgan masalalar tahlili va tavsifi asosida quyidagi xulosalarga kela olamiz:

- [Pm]ning o`zbek tilida yuzdan ortiq yuzaga chiqish shakllari mavjud bo`lsa ham, har bir shaklning juz`iy xususiyatlarini e`tiborga olmay, barcha shakllar uchun umumiy bo`lgan tasdiq/inkor, mayl, zamon, shaxs/son ma`nolarining birgalikda ifodalanishga tayanib, [Pm] bir butunlik sifatida olinadi;
- kesimlik kategoriyasi shakllari [Pm] mavqeyida voqelashar ekan, nutqda qanday ko`rinishda ifodalanishidan qat`i nazar, o`zbek tilida sodda (va umuman) gap lisoniy-sintaktik qurilishini belgilashga xizmat qiladi;
- [W] ham, [Pm] ham nutqda cheksiz ko`p turda voqelanish imkoniyatiga ega. Bevosita kuzatishda berilgan nutqiy sintaktik birliklar kabi sodda gap turlari ham cheksiz bo`lib, bu voqelanish turlarining miqdorini hech vaqt sanab, nihoyasiga yetib bo`lmaydi. Chunki sodda gapning eng kichik qolipi –[WPm]=SG til birligi sifatida o`zbek nutqida yozma va og`zaki (va boshqa) shaklda qo`llanilgan, qo`llanilayotgan va qo`llanilishi mumkin bo`lgan barcha gaplarda voqelanadi;

- nutqimizdagi grammatik shakllangan sodda gaplarning rang-barang nutqiy ko`rinishlari umumiy [WPm]=SG qolipining [IWPmI]=SG, [IWPmYo]=SG, [∅+IIWPmYi]=SG, [∅+IIWPmYo]=SG, [∅-IIWPmYi]=SG, [∅-IIWPmYo]=SG variantlarida leksik-grammatik to`ldirilgan holda voqelanishi natijasida yuzaga keladi;
- shunday qilib, nutqiy voqelanishda bu sodda gap qoliplari gapning nutqda yashashi uchun zaruriy bo`lgan, lekin mohiyatan nosintaktik bo`lgan kategoriyalarning zarralari bilan bosqichma-bosqich boyitilib, nutqimizda o`nlab sintaktik, morfologik, leksik, stilistik kategoriyalarning birliklari, zarralari bilan murakkablashtirilgan, bezatilgan shaklda yuzaga chiqadi.

## UMUMIY XULOSA

Malakaviy-bitiruv ishida “Kesimlik shakllari va sodda gap qurilishi” mavzusi bilan uzviy aloqador masalalarning tahlili natijasi quyidagi xulosalarda o`z aksini topadi:

1. O`zbek tilida kesimlik shakllarining sodda gap lisoniy-sintaktik qurilishiga ta`siri hamda sodda gap lisoniy-sintaktik qurilish qolipi va variantlarini belgilashdagi vazifasini o`rganish masalasi fanimizda sintaktik sathning substansial tadqiqi muammolari bilan chambarchas bog`liqdir.

2. O`zbek tilshunosligida kesimlik kategoriyasi tilimiz grammatik qurilishining formal-funksional (substansial) talqini natijasida murakkab va mustaqil kategoriya sifatida alohida ajratilgan va shakliy-vazifaviy jihatdan o`rganilgan.

3. Formal-funksional nuqtayi nazardan kesimlik kategoriyasi murakkab tasdiq/inkor (N), mayl-modallik (M), zamon (T), shaxs-son (P) ma`no va shakllarining birligi –  $[Kk = N_R M_R T_R P]$  dan tashkil topgan mustaqil va kesimni shakllantiruvchi grammatik kategoriya hisoblanadi.

4. Shuni alohida ta`kidlash kerakki, kesimlik kategoriyasi tarkibiy qismlarining har biri nisbiy semantik-funksional va lisoniy mustaqillikka ega bo`lsa ham, ularning birortasi alohidalikda kesimlik kategoriyasini tashkil etmaydi.

5. Til tizimida kesimlik kategoriyasi shaklan morfologik, vazifa jihatidan sintaktik mohiyatli sof grammatik kategoriya sifatida kesimlik shakli va gap markazini tashkil etish kabi lisoniy belgilari asosida aniqlanadi.

6. Kesimlik kategoriyasi grammatik shakl valentligiga egaligi tufayli gapning lisoniy qurilishini belgilaydi va nutqda rang-barang, xilma-xil gap kesimlari tarkibida voqelanadi.

7. Kesimlik shakllari (N,M,T,P) gap markazini tashkil etgan kesim tarkibida [Pm]ning cheksiz nutqiy voqelanishlarini ta`minlovchi lisoniy morfologik imkoniyat bo`lib, sodda gapning turli nutqiy ko`rinishlarida [Pm]ning alohida-alohida, qorishiq holda, to`liqsiz fe`l, bog`lama va hatto [Ø] morfema bilan ifodalanishiga sabab bo`ladi.

8. [Pm]ning o`zbek tilida yuzdan ortiq yuzaga chiqish shakllari mavjud bo`lsa ham, har bir shaklning juz'iy xususiyatlarini e'tiborga olmay, barcha shakllar uchun umumiy bo`lgan tasdiq/inkor, mayl, zamon, shaxs/son ma'nolarining birgalikda ifodalanishga tayanib, [Pm] bir butunlik sifatida olinadi.

9. Kesimlik kategoriyasi shakllari [Pm] mavqeyida voqelashar ekan, nutqda qanday ko`rinishda ifodalanishidan qat'i nazar, o`zbek tilida sodda (va umuman) gap lisoniy-sintaktik qurilishini belgilashga xizmat qiladi.

10. Jamiyatimiz a'zolari nutqida voqelashadigan sodda gaplarning asosiy vazifasi turli kommunikativ ehtiyojlarni qondirishdan iborat. Nutqiy kommunikativ vazifani bajarish maqsadida reallashuvchi sodda gaplarning lisoniy-sintaktik qurilish mohiyati [WPm]=SG qolipida mujassamlashgan bo`ladi.

11. Sodda gapning eng kichik qurilish qolipi – [WPm]=SG qolipi va uning variantlari – [IWPmI]=SG, [IWPmYo]=SG, [⊕+IIWPmYi]=SG, [⊕+IIPmYo]=SG, [⊖-IIWPmYi]=SG, [⊖-IIPmYo]=SG qoliplari bevosita kuzatishda berilgan sodda gaplarning xilma-xil ko`rinishlarini lison bosqichida umumlashtiradi.

## **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

### **I. Ижтимоий-методологик адабиётлар:**

1. Каримов Ислом. Ўзбекситон XXI асрга интилмоқда. –Т.: Ўзбекистон, 1999.-48 б.
2. Каримов Ислом. Баркамол авлод орзуси. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2000.
3. Каримов Ислом. Юксак маънавият–енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008.-176 б.
4. Каримов Ислом. Адабиётга эътибор маънавиятга, келажакка эътибор. // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”, 2009 йил 3 июль.

### **II. Илмий рисола, дарслик ва ўқув қўлланмалари:**

5. Абдурахмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси. –Т.: Фан, 1995. - 278 б.
6. Абдурахмонов Ғ. Сулаймонов А., Холиёров Х., Омонтурдиев Ж. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. –Т.: Ўқитувчи, 1979.-208 б.
7. Баскаков Н.А., Содиқов А., Абдуазизов А. Умумий тилшунослик. –Т.: Ўқитувчи, 1979.-192 б.
8. Боровков А.К., Ғуломов А.Ф., Маърупов З., Шермухаммедов Т. Ўзбек тили грамматикаси. II қисм. Синтаксис. –Т.: Ўздавнашр, 1956.-132 б.
9. Засорина А.Н. Введение в структурную лингвистику. –М.: Высшая школа, 1974.-319 с.
10. Кодухов В.И. Общее языкознание.–М.: Высшая школа, 1974.-178 с.
11. Колшанский Г.В. Логика и структура языка. – М.: Высшая школа, 1965.-240 с.
12. Маҳмудов Н. Маърифат манзиллари. –Т.: Маънавият, 1999.-64 б.
13. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. –Т.: Ўқитувчи, 1995. -232 б.
14. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. –Т.: Ўқитувчи, 1978. -256 б.
15. Менглиев Б. Ўзбек тилининг структур синтаксиси. –Қарши: Насаф, 2003.-19 б.

16. Менглиев Б., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Қарши: Насаф, 2005.-184 б.
17. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. –Т.:Ўқитувчи, 1993.-32 б.
18. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. –Т.: Ўқитувчи , 1995.-128 б.
19. Неъматов Ҳ., Сайфуллаева Р., Курбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. –Т.: Университет, 1995.-55 б.
20. Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. – Т.:Фан, 1982.-100 б.
21. Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. . – Т.: Фан, 1989.-142 б.
22. Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек тилида кўшма гапларнинг формал-функционал талқини. –Т.:Фан,1994.-356 б.
23. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o`zbek adabiy tili. –Т.: "Fan va texnologiya", 2009.-414 б.
24. Солнцев В.М. Язык – как системно-структурное образование. –М: Наука, 1971.-294 с.
25. Усмонов С. Умумий тилшунослик. –Т.: Ўқитувчи, 1972.-208 б.
26. Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик-хусусийлик диалектикаси талқинида. I жуз. – Андижон, 1994.-98 б.
27. Ўзбек тили грамматикаси. II том. –Т.:Фан, 1976.-560 б.
28. Курбонова М. Ҳозирги ўзбек тили (сода гап синтаксиси учун материаллар). –Т.:ЎзМУ босмахонаси, 2002.-117 б.
29. Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. – Т.: Ўқитувчи, 1987.-256 б.

### **III. Луғатлар:**

30. Лингвистический энциклопедический словарь. М., 1990.

### **IV. Илмий мақолалар:**

31. Кацнельсон С.Д. О грамматической категории// Вестник ЛГУ. 1948. №2. -С.132.

32. Маҳмудов Н. Мустақил давлатнинг муқаддас тимсоли //“Ўзбек тили ва адабиёти ”, 2009.№5.–Б.3-9.

33. Маҳмудов Н. Кесимнинг гапдаги мақоми (ёки тилнинг систем-структур талқинларида мунтазамлик ва мутаносиблик эҳтиёжи) //”Ўзбек тили ва адабиёти”, 2009.№1.–Б.44-56.

34. Неъматов Ҳ. Тажалли тасаввуф билиш назарияси ва тилшуносликда синтаксисни ўрганиш масалалари // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1993.№2. –Б. 27-30.

35. Неъматов Ҳ. Ўзбек тилшунослигида формал, структурал ва субстанциал йўналишлар хусусида // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2009. №4. – Б.35-41.

36. Нурмонов А. Тилни системали ўрганиш ва синтаксиснинг айрим мунозарали масалалари // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1998. №5.–Б.20-26.

37. Қурбонова М.Шакл-вазифавий талқинда субстанциаллик омиллари // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1999. №1. –Б.42-45.

38. Қурбонова М., Очилова М., Раҳимов А. Ўзбек тилшунослигида синтактик назариялар // “Айюб Ғулом ва ўзбек тилшунослиги” (илмий тўрлам) – Т.: 2004. –Б.73-76.

#### **V. Диссертация ва диссертация авторефератлари:**

39. Абузалова М.Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши. Номзодл. диссер... автореф. –Т., 1994.-22 б.

40. Менглиев Б. Морфологик воситаларининг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари. Номзодл. диссер... автореф. –Т., 1996.-19 б.

41. Менглиев Б. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар. Докторл. диссер... автореф. –Т., 2002.-46 б.

42. Назарова С. Бирикмаларда сўзларнинг эркин боғланиш омиллари. Номзодл. диссер... автореф.–Т., 1997.-21 б.

43. Нигматова Л. Ўзбек тилида привативлик (нофонологик сатҳлар) Номзодл. диссер... автореф. –Т., 2004.-15 б.

44. Шаҳобиддинова Ш. Грамматик маъно талқини хусусида. Номзодл. диссер...автореф. –Т., 1993.-24 б.

45. Қурбонова М. Ўзбек тилшунослигида формал-функционал йўналиш ва содда гап қурилишининг талқини. Докторл. диссер... автореф. –Т., 2001.- 51 б.

## MUNDARIJA

Kirish. Ishning umumiy tavsifi.....	3
I bob. Kesimlik kategoriyasi va uning valentligi.....	7
1.1. Kesimlik mustaqil grammatik kategoriya sifatida.....	7
1.2. Grammatik shakl valentligi va kesimlik shakllari tizimi.....	14
II bob. O`zbek tilida sodda gaplarning substansial talqini.....	30
2.1.[WPm]=SG – sodda gapning eng kichik qurilish qolipi sifatida.....	34
2.2.[WPm]=SG qolipining variantlari.....	40
Umumiy xulosa.....	47
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	49